

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI

GEOGRAFIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
dekani _____ dots. G'.Qodirov
“ _____ ” _____ 2013 y

**5140500 - “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo`nalishi bo`yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun**

**“O`RTA OSIYO OLIMLARINING TOPONIMIKA FANI RIVOJIGA
QO`SHGAN HISSASI”
mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: FAYZULLAEVA SEVARA

Ilmiy rahbar: g.f.n. HAKIMOV Q.M.

**BMI “Geografiya va uni o`qitish metodikasi”
kafedrasi yig`ilishining _____ 2013 y.
№__ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.**

Kafedara mudiri: g.f.n. Q.Hakimov

JIZZAX - 2013

M U N D A R I J A

KIRISH

I-BOB. TOPONIMIKANING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1.1. QADIMGI DUNYO TOPONIMIKASI

1.2. O'RTA ASRLARDA TOPONIMIKA

II-BOB. O'RTA OSIYO OLIMLARI VA TOPONIMIKA

3.1. O'RTA OSIYO OLIMLARI VA TOPONIMIKA

3.2. O'ZBEKISTON OLIMLARI VA TOPONIMIKA

III-BOB. ILMIY TOPONIMIKANI PAYDO BO'LISHI (XIX-XX ASRLAR)

2.1. XX – ASR O'ZBEKISTON TOPONIMIKASI

2.2. MUTAQILLIK DAVRIDAGI O'ZBEKISTON TOPONIMIKASI

XULOSA

GLOSSARIY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

K I R I Sh

Mavzu dolzarbligi. Dunyoda hamma narsaning nomi bor. Tog' deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog' tushuniladi. Ko'l ham shunday umumiy atama, turdosh ot. Bunday so'zlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, ob'ektni bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, Samarqand deganda respublikamizdagi Zarafshon daryosi sohilida joylashgan go'zal tarixiy shahar tushuniladi. Buxoro deyish bilan O'zbekistonning ko'hna shahri, shu nomli viloyat markazi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, toponim (geografik nom) - avvalo so'zdir. Biroq u oddiy so'z emas, birinchidan, atoqli ot. Ayni paytda ko'pgina toponimlar, hatto tilshunos olimlar uchun ham tushunarsiz. Xorazm, Samarqand, Farg'ona, Namangan kabi nomlarning kelib chiqishi haqida qancha fikrlar bildirilgan bo'lsa ham, ularning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon noma'lum.

Joy nomlari shu qadar ko'pki, hamma toponimlarning ham ma'nosiga etib bo'lmaydi. Nom qancha qadimiy bo'lsa, uning etimologiyasini bilish shuncha qiyin bo'ladi. Hamma nomlardan ma'no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlarni o'zgartirib, boshqacha atash minglab yillarning mahsuli bo'lgan ma'naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir. Biz uchun noaniq bo'lgan geografik nomlar ma'nosini kelajak avlodlar tushunib oladi. Ma'nosidan qat'iy nazar, barcha nomlar manzil vazifasini bajaradi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy funksiyasi adreslik bo'lib xizmat qilishdir. Demak, joy nomlari bir ob'ektni ikkinchi ob'ektdan farq qilish uchun, bu ob'ektning o'rnini aniq ko'rsatish uchun zarur.

Geografik nomlar manzilgina emas, balki ko'pdan-ko'p axborot - tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma'nosiz nom bo'lmaydi. Lekin ko'pgina joy nomlarining ma'nosi yo'qolgan, aniqrog'i hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo'lib qolgan. Toponimlar turli asrlar mevasi bo'lib, uzoq davrlar yashaydi. qadimiy tillarda qo'yilgan nom

keyingi xalqlar uchun oddiy toponimdan boshqa narsa emas, uning qanday ma'noni anglatishi haqida har doim ham o'ylab o'tirishmaydi.

Ishning maqsadi. Geografik nomlar turli davrlar guvohi. Turli soha olimlari - tilshunoslar, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnograflar toponimikaga murojaat qiladilar. Geografik nomlarga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini bilib olish mumkin.

Turli davrlarda yashagan va turli tillarda gaplashgan xalqlar O'rta Osiyo, jumladan o'zbek halqining etnogenezida muayyan darajada ishtirok etgan va o'lkaning tarixiy toponimiyasida iz qoldiigan. Buni O'rta Osiyoning o'tmishda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan aholisining hozirgacha saqlanib qolgan urug'-qabila nomlarida ham ko'rish mumkin. Sarmat, Sirak (Siroq), To'xar, Alan, Mitan kabi toponimlar o'lkada turli davrlarda yashagan qadimiy xalqlar va qabila nomlarining in'ikosidir. Har bir mamlakatda, viloyat, har bir tumanda, shaharda va hatto qishloqda qanchadan-qancha toponimlar bor.

Professor S.Qorayev yozishicha, u 1966 yilda Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Tamtum qishloq atrofidan 300 dan ortiq toponim va mikrotoponim yozib olgan. Bular chek erlar, dalalar, bog'lar, qo'nish joylari, tabiiy ob'ektlar - qoyalar, qirlar, tepaliklar, dalalar, soyliklarning nomlaridir. Ana shu toponimlarga qarab qishloq tarixini, unda kimlar yashagani, erga bo'lgan xususiy mulkchilik haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Maydoni O'zbekistonnikidan sal katta bo'lgan Shvesiyada 12 million toponim qayd qilingan. Respublikamizda ham kamida shuncha toponim bor deyish mumkin. Butun dunyoda esa bir necha milliard toponim bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Geografik nomlar - xaritaning muhim elementidir. Joy nomlari ob'ektlarning manzillari bo'lish bilan birga hududning tabiati, tabiiy boyliklari va boshqa geografik xususiyatlari haqida ma'lumot bera oladi. Toponimika geologik qidiruv ishlarida ham katta yordam beradi. Geologiya-minerologiya fanlari doktori R.A.Musin o'zining ko'p yill ilmiy faoliyatida qadim zamonlarda ishga solingan konlarning o'rinlari toponimika ancha aniq ko'rsatib bera olishini isbot qilgan. Konsoy Kontepa, Oltinbel, Oltintog',

Simob, Kumushkon, Miskon, Ko'hisim, Qo'rg'oshinkon kabi daryo va soylar, tog'lar va tepaliklar, yo'llar, dovonlar, maydon va mavzalar bu joylardan er osti boyliklari qazib olinganidan dalolat beradi.

Masalan, Parkent qishlog'i yaqinida joylashgan Kumushkondan qadimda ham, yaqin - yaqinlarda ham qo'rg'oshin qazib olingan. Nima uchun Kumushkon qo'rg'oshinkon deb atalgan emas? Buning siri yaqindagina aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, Kumushkonning qo'rg'oshin rudalari boshqa kon rudalaridan o'zining kumushga boyligi bilan ajralib turganligi sabab bo'lgan.

Ko'hisim o'rta asrlarda Iloqdagi mashhur konlardan bo'lgan. Arxeologlar va geologlar Qurama tog'larining shimolida, Angren shahrining shimoli - g'arbida joylashgan Lashkarak polimetall rudalari koni o'sha Ko'hisim (tojikcha «Kumush tog'») ning o'zginasi ekanligini aniqladilar. Bu kondan qadimgi davrlarda ko'plab kumush qazib olinganligi ma'lum bo'ldi.

Geografik nomlar juda qadim zamonlarda, ibtidoiy tuzum davrida paydo bo'la boshlagan. Joy nomlari ming-ming yillar davomida to'plana borgan va hozirgi vaqtda yer sharida behisob toponimlar bor. Lekin hammasi bo'lib, dunyoda qancha geografik nom bor ekanini hech kim bilmaydi, buni hisoblab chiqishning iloji ham yo'q. Har bir qishloqda va uning yon atrofida bir necha quduq, kichik jar, ayrim qoya, hovuz, uvat bilan chegaralangan chek er, buloq, tepalik, xirmonjoylar, yolg'izoyoq yo'llar uchraydiki, ularning nomlari shu qishloqdagi bir guruh odamdan boshqa hech kimga ma'lum emas. Bunday kichik ob'ektlarni eng mukammal topografik xaritadan ham topib bo'lmaydi.

Geografik nomlar dunyoga keladi, yashaydi, ma'lum bir davr davomida ko'pincha shakli hamda talaffuzi o'zgaradi va nihoyat nom-nishonsiz yo'qoladi. Toponimlarning umri turlicha. Ba'zi bir toponimlar bir necha yil yoki bir necha o'n yil yashasa, boshqa bir geografik nomlar asrlar bo'yi ham tildan tilga o'taveradi. Samarqand yunon tarixchilari asarida Marakanda, sug'd yozuvlarida Smarakans, Toshkent esa dastlab Choch, keyinchalik Shosh, X asrdan e'tiboran Toshkent shaklida qayd qilingan. Qayd qilingandek, toponimlar turli davrlarning va turli tillarning mahsulidir. Xalqning tili bilan tarixi chambarchas bog'liq.

Nom qo'yish jarayoni o'z qonuniyatlariga ega bo'lib, birinchi navbatda tarixiy voqealar taqozosi bilan dunyoga keladi. Gadoytopmas, Qulqishloq, Namozgoh, Oqmachit, Maddohlar, Xonobod, Taxti Sulaymon, Eski Vaqf, Mirshabxona, Boylar, Bevatan, Moxovqishloq, Eshonlar, Xarosiyo jamiyat turli tabaqalarga bo'lingan tarixiy davr mahsulidir.

Ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat

I - BOB. TOPONIMIKANING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1.1. QADIMGI DUNYO TOPONIMIKASI

Geografik nomlar va ularning ma'no mazmuniga qiziqish sivilizasiyaning eng dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan. Shu bois, insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, geografik nomlar ham shuncha qadimiydir. Kishilar dastlab har qanday geografik obyektni oddiy turdosh otlar - terminlar bilan atashgan, ya'ni suv, tog', ko'l, tepa, jar va hokazo. Keyinchalik jamiyatning rivojlanishi bilan joy nomlari ham murakkablashib borgan, ya'ni turdosh otlarni atoqli otga, toponimga aylanishiga sabab bo'lgan. Masalan, qadimgi turkiy xalqlar katta daryoni o'kuz, edil, jayhun deb atagan. Katta daryo ma'nosini anglatuvchi bu so'zlar keyinchalik daryo nomiga aylangan.

Har qanday fan amaliyot talablari asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Toponimika birinchi galda geografiyaning amaliy ehtiyojlari ta'sirida vujudga keldi. Dastlabki sayyohlar o'zlari kashf etgan yerlarga nom berdilar, uzoq o'lkalar va shaharlarning nomlarini hammaga ma'lum qilishdi. Ilk bor geografik nomlarni to'plab o'rganganlar ham geograflar bo'lgan.

Toponimlarni izohlash, tasniflashga bag'ishlangan dastlabki urinishlarni qadimgi misr, yunon, xitoy, hind, fors, Vizantiya va Rim tarixchi va geograflari asarlarida hamda boshqa yozma manbalarida uchratish mumkin. Antik dunyoda esa tarixiy - geografik asarlar yaratish bilan birga geografik nomlarni izohlash an'anasi paydo bo'lgan. Ammo, bu davrda toponimlarining etimologiyasi turlicha sharhlangan. Ko'pincha, joy nomlarning kelib chiqishi qandaydir afsonaviy syujetlar bilan bog'lagan. Shu bilan birga geografik nomlar ba'zan to'g'ri talqin qilingan, unda ko'pincha obyektning real alomatlari, geografik o'rni va hokazo inobatga olingan.

Qadimgi va dastlabki ma'lumotlarni Geradotni «Tarix», Strabonni «Geografiya», Arrian, Plutarx, Kvint Kursiy Ruf kabi qadimgi dunyo olimlari asarlarida uchratish mumkin. Masalan, Geradot o'z asarlarida mamlakatlar, shaharlar, dengizlar, daryolar nomlarining ma'nosini tushuntirib berishga harakat

qilgan. Antik dunyo mualliflari geografik nomlarni, kishi ismlarini mavjud bo'lgan nomlash qonuniyatlarini va ularning o'zaro aloqadorligini aniqlamasdan asosan etimologik jihatdan izohlashgan. Natijada, toponimik ma'lumotlar garchi qiziqarli bo'lsa ham, ammo ilmiy asosga ega bo'lmagan.

Ilk bor milodiy I-asrda toponimik axborotni ilmiy jihatdan tadqiq qilishga harakat qilingan. Masalan, ispan antik olimi *Pomponiy Mela* o'zining «Xorografiya» asarida toponimlarni ilk bor ilmiy manba sifatida foydalanishga harakat qilgan. Toponimika geografik atamashunoslik - terminshunoslik va lug'atshunoslik sohasidagi tadqiqot va tasavvurlarning shakllanishi Yer haqidagi fizika, astronomiya, tarix va aniq falsafa fanlarning taraqqiyot tarixi bilan bevosita bog'liq.

Jamiyat taraqqiyot tarixining antik davri (eramizdan oldingi 476 va melodning 446 yillari oralig'i) hozirgi ko'pchilik fanlarning asoslari yaratilgan davr hisoblanadi. Yuqorida takidlanganidek Yer haqidagi ilmlar xususan geografiya fanlari, uning asosiy iboralari qoida va fanning muayyan tushunchalarini ifodalaydigan so'z va so'z birikmalari ayni shu antik davrda paydo bo'lgan.

Toponimikaga doir tushuncha va ma'lumotlar qadimgi yunon - Rim tarixchi va faylasuf olimlarning ishlarida uchraydi. Ma'lumki geografiya atamasi birinchi marta eramizdan oldingi 276-194 yillarda yashab ijod etgan yunon olimi Erotosfen tomonidan fanga olib kirgan. Hozirgi Liviya davlati hududi doirasida mavjud bo'lgan Keruna shahrida tug'ulib, bugunki Misrning hozir ham eng katta shahri Aleksandriyadagi o'sha qadimgi davrning eng boy kutubxonasi boshlig'i bo'lib ishlagan.

Eratosfenning "geografik yozishmalar kitobida geografiya atamasi bilan birga talay geografik terminlarlar - meridian paralel kabi so'zlar ishlatilgan. Shuni ham takidlash lozimki, hali geografiya so'zi paydo bo'lishdan oldin eramizdan oldingi VII-V asrlarda Melyat shahrida yashagan. Rekatiy shahrida yashagan O'rta yer dengizi va Qora dengiz va boshqa o'sha davr yunonlarning qadami yetgan o'lkalar geografik tasvirini tuzib, ko'plab toponimlar ishlatgan.

Tarix fanining atamasi Gerodot (Rim respublikasining meloddan oldingi 146-43 yillarda yashagan hukumdori Siseronning Gerodotga bergan bahosi) hozirgi O'rta dengiz, Qora dengiz, Kaspiy dengizi va ularga tutash joylardagi geografik obyektlar toponimlar va o'lkalarning xalqlari haqida ma'lumot bergan. Shu bilan birga hozirgi geografiya fanida yetakchi tushunchalar sifatida ishlatiladigan iqlim, iqlim mintaqasi, Arktika doirasi, qutb doirasi, tropik kenglik shunibng Oykumena, Sfragrida Gidrosfera, atmosfera,

Metiorologiya va boshqa ko'plab tushuncha va iboralar antik davrda ishlatilgan. O'rta dengizga va unga tutash joylardagi geografik obyektlarning atqli otlar Liviya, Atlantida, Tavrida, Pantiya, Odessa, Semferopol, Kalxida, Rioni, Don, Oks va boshqa toponimlar qadimgi antik davr va Yunon – Rim tarixi davrida paydo bo'lgan.

Қитъалар номланиши. Қитъа - (арабча, бўлак, қисм) ер юзидаги куруқликларнинг атрофидаги ороллар билан бирга шартли равишда ажратилган қисмлари. Куруқликнинг энг катта бўлаклари сифатида, ҳар бир қитъа номини ўзига хос пайдо бўлиш тарихи мавжуд. Қитъалар номлари кишилиқ жамиятининг ривожланиши билан бевосита боғлиқ, уларнинг ҳар бири курраи заминни англашдек мураккаб жараёнларни ўзида акс этган.

Осиё қитъаси - ер шаридаги энг катта қитъа (бутун куруқлик майдонининг 30 фоизини эгаллаган). Евросиё материгининг шарқий қисми. Осиё шимолий ярим шарнинг барча географик минтақаларини ўз ичига олади. Топоним *Asia* шаклида Гомернинг «Илиада» асарида тилга олинган (милoddan аввалги VIII аср). Ушбу термин милет мактабининг асосчилари Фалес, Анаксимандр, Гекатей (милoddan аввалги VI аср) томонидан илмий адабиётларга киритилган.

Дастлаб топоним Эгей денгизининг шарқий соҳилларига нисбатан қўлланилган. Кейинчалик ушбу ҳудудда пайдо бўлган Пергам подшолигини римликлар Осиё деб аташган. Милoddan аввалги 133 йилда, римликлар ушбу ҳудудларни босиб олиб Осиё провинциясини ташкил этган. Геродот

асарларида (мил. авв. V аср) Осиё деб ҳозирги Туркиянинг ғарбий қисмигина таърифланган.

Хуллас, Осиё номи Ўрта денгизнинг соҳилларига хос атоқли от ҳисобланган. Кейинчалик бу ном шарқий ерларга ҳам ёйилиб, умумлашиб кетган ва дастлаб Қуйи Осиё, сўнгра Буюк Осиё номлари, XVIII - XX асрларда Кичик Осиё, Жанубий-Шарқий ва Жанубий-Ғарбий Осиё, Ўрта Осиё, Марказий Осиё сингари қитъанинг айрим қисмларини англатувчи номлар пайдо бўлган. Осиё - дастлаб кичик бир ернинг номи бўлган бўлса, замонлар ўтиши билан шарққа томон ареали кенгайиб борди ва энг катта қитъанинг умумлашган номи бўлиб қолди.

Мутахассислар топонимни турлича талқин қилишган. Масалан, Азия шаҳри номидан, философ Азия исмидан, Азия водийси номи асос бўлиб хизмат қилган ва ҳоказо. Осиё номи осури тилидаги *асу* - «кун чиқиш томон», «шарқ» маъносидаги сўздан келиб чиққан деган изоҳ ҳам мавжуд. Аммо, Месопотамияда яшаган осурийлар нима сабабдан ватанидан ғарбда жойлашган ҳудудларга нисбатан шарқ сўзини қўллашган деган саволга жавоб топиш қийин.

Бошқа талқинда, ном Ассува шаклида Кичик Осиё ярим оролининг унча катта бўлмаган ғарбий ҳудудларига нисбатан қўлланиши таъкидланган. Юнонлар томонидан мазкур ҳудудлар босиб олингандан кейин, ном қисман ўзгариб Асия (Азия) шаклида талаффуз қилинган.

Буюк «Ипак йўли»нинг очилиши, римликларнинг ҳарбий босқинлари, европаликларнинг салиб юришлари натижасида Осиё ҳақида кўплаб маълумотлар тўпланган. Ўрта асрларда Осиё ҳақида ўртаосиёлик олимлар (Беруний, Маҳмуд Кошғарий, Муҳаммад Хоразмий ва бошқ.) ҳам анча маълумотлар ёзиб қолдирганлар. Хусусан, X-аср охирида ёзилган «Худуд ул олам» асарида Осиё географияси ўша замонга нисбатан анча тўғри баён этилган. Илк цивилизация марказлари қадимда Осиёда юзага келган. Бу ерда асрлар давомида буюк давлатлар (Бобил, Шумер, Оссурия, Хараппа, Урарту

ва бошқ.) ҳамда салтанатлар (Бобурийлар, Усмонлилар) юзага келган ва парчаланиб кетган.

Европа - қитъа номи, Евросиё материгининг ғарбий қисми. *Европа* - юнон мифологиясида финикийлар подшоси Агенорани қизи. Қадимги юнонлар ривояти бўйича, осмон худоси ҳисобланган Зевс, ҳўкиз қиёфасида кизни ўғирлаб Крит оролига олиб кетган. Гўзал малика шарафига куруқликни катта бир бўлаги унинг номи билан Европа деб аталган. Малика Европани ўғирлаш саҳнаси бир қатор буюк рассомларни (Тициан, В.Серов) машҳур асарлар яратишга илҳомлантирган. Бу шунчаки ривоят, бўлса ҳам қадимги греклар шу йўл билан маъно-мазмуни мавҳум бўлган топонимни изоҳлашга ҳаракат қилишган.

Маълумки, топоним милoddан анча аввал пайдо бўлган. Мутахассисларнинг ёзишича, милoddан аввалги VI - асрдаги қадимги Юнон бадий адабиётларида Европа сўзи учрайди. Масалан, Аполлон худосига бағишланган мадҳияда Европа номи, Болқон ярим оролидаги унча катта бўлмаган ҳудудларга нисбатан қўлланилган. Қитъа номи сифатида топоним дастлаб милoddан аввалги VI-V асрда қадимги Юнон олимлари Герадот ва Гекатей томонидан фанга киритилган.

Мутахассислар томонидан топонимни илмий этимологияси ҳозиргача аниқланмаган бўлса ҳам, аммо уни икки хил изоҳлашади. Биринчиси, топоним Олд Осиёда пайдо бўлган ва европа сўзи осури тилида *эреб* - «кун ботиш томон», «қоронғулик», «ғарб» маъносини ифода этган. Осурийлар ватанидан ғарбда жойлашган барча ерларга нисбатан эреб сўзини қўллашган.

Иккинчиси, Европа сўзи лисоний жиҳатдан ҳинд-европа тиллар оиласига мансуб, аммо этимологияси номаълум. У Эуропия шаклида қадимги Юнондаги Фессалии ва Этолии тарихий вилоятлари жойлашган ҳудудларга нисбатан қўлланилган. Кўп асрлар давомида истёъмолда бўлган ном, барча ҳозирги ҳудудларни қамраб олган.

XX - аср бошида Европа сўзи ўзбек тилига рус тили орқали ўзлашган. Салкам ярим аср мобайнида бу ном ўзбек тилида *Оврупо*, *Авропа*, *Ёвропа*,

Ёврупо, Явропа каби бир неча шаклларда ёзиб келинган. 1941 йилдан бошлаб ўзбек тилида номни узил-кесил Европа шаклида ёзиш маъқул топилган.

Африка - қитъа, майдони жиҳатдан Евросиёдан кейинги иккинчи ўринда турувчи материк. Қитъа қадимда кам ўрганилган, шу боис уни ягона номи ҳам бўлмаган. XVI асрга келиб материк қиёфаси маълум бўлган. Юнонлар ҳозирги Африка материкнинг ўзларига маълум қисмини *Либия* (либу - қабиласи номидан) деб аташган. Масалан, Гомер асарларида (милоддан аввалги VIII аср) қитъа номи Либия тарзида тилга олинган.

Мутахассислар қитъа номини қадимда ҳозирги Тунис ва Жазоир давлатлари ҳудудида яшаган *африги* («ғорда яшайдиган одамлар» маъносида) қабиласи номи билан боғлиқ деб ҳисоблашади. Бу ном, дастлаб милоддан аввалги III асрда финикийлар шаҳри *Карфаген* (ҳозирги Тунис шаҳри атрофида) жойлашган ерларга нисбатан ишлатилган. Карфаген давлати милоддан аввалги 146 йилда парчаланган, римликлар уни ўрнида Рим империясига қарашли Африка провинциясини ташкил этган. Ўрта асрларда топоним ҳудуди аста-секин кенгайиб, дастлаб материкнинг шимолий - ғарбига, кейинчалик эса ушбу ном бутун материкка нисбатан қўлланилган.

Африка сўзининг грекча, афри - «совуқ эмас» маъносини англатади деган талқини ҳам бор. Ҳақиқатдан ҳам Африка дунёдаги энг иссиқ материк ҳисобланади. Топонимистлар Африка номига этноним асос бўлганлигини ҳақиқатга яқинроқ деб ҳисоблашади. Африка ва унинг халқлари тўғрисидаги баъзи маълумотларни Мовароуннаҳр халқлари қадимдан билганлар. Чунончи, Африка қитъасини Муҳаммад Хоразмий «Сурат ул-арз» асарида тилга олган. Африка тўғрисида баъзи маълумотларни Аҳмад Фарғоний, Абу Райҳон Беруний, Маҳмуд Кошғарий, Муҳаммад Нажиб Бакро, Ҳофиз Аbru асарларида ҳам учратиш мумкин. Масалан, Беруний чизган дунё харитасида Африка қитъасининг ҳам шакли бор.

Америка - икки материк, яъни Шимолий ва Жанубий Америкадан иборат қитъа номи. Америка қитъаси ғарбий ярим шарда, Атлантика ва Тинч

океанлари орасида жойлашган. Гренландия ва Шимолий Американинг шимолий-шарқий соҳили X-XI асрларда нормандлар томонидан кашф этилган деб ҳисобланади. Антил ороллари, Жанубий Америка соҳилининг шимолий қисми ҳамда Кариб денгизи соҳилининг жанубий қисмини 1492-1503 йилларда Х.Колумб кашф этган. Америка расмий кашф этилишидан беш аср илгари Беруний Ғарбий яримшарда ҳам қуруқлик бўлиши мумкин деган фикрни айтган.

Ҳ.Ҳасанов ёзишича, дунё харитасида, умуман география тарихида, энг хато ном - Америка. Сабаби: биринчидан, маҳаллий туб аҳоли ўз юртини бундай атамаган. Иккинчидан, агар Христовор Колумбнинг 1492 йилда бу қитъани кашф этганлиги тан олинса, қитъанинг номи Колумбия бўлиши керак эди. Х.Колумб томонидан янги қитъа кашф этилган бўлса ҳам, аммо у Ҳиндистонни бир қисмига келиб қолдим деб ўйлаган.

Америка номи флоренциялик денгиз сайёҳи Америго Веспуччи номи билан боғлиқ. У Жанубий Американинг шимолий – шарқий ва шарқий соҳилларини ўрганган ва 32 бетдан иборат мактубида номаълум ерларга борганлигини ёзган. 1507 йили немис картографи М.Вальдземюллер ўз харитасида бу ерларни «*Америго ерлари*» (Америго Веспуччи тилга олган ерлар маъносида) деб ёзган. М.Вальдземюллер ушбу номни дастлаб ҳозирги Жанубий Америка материгига нисбатан қўллаган, кейинчалик у бутун қитъа номига айланган. Фламандлик картограф Г.Меркатор илк бор номни ҳар икки материк учун қўллаган ва XVI асрнинг иккинчи яримидан бошлаб Америка қитъанинг ягона номига айланган.

Америка номининг бошқа талқинлари ҳам бор. Масалан, 1497 йили денгизчи Ж.Кабот бошчилигидаги экспедицияга сармоя ажратган инглиз меценати Винсента Америка исми билан аталган. Қадимда ҳозирги Никарагуа давлати ҳудудида яшаган маҳаллий ҳиндуларнинг америкос қабиласи номидан олинган ва бошқалар. Аммо, бу изоҳлар соҳа мутахассислари томонидан қўллаб-қувватланмаган.

Австралия - жанубий ярим шарда жойлашган қитъа номи. Австралия – материклар орасида энг кичиги. Қадимги дунё олимлари жанубий ярим шарда номаълум қуруқлик - *Terra Incognita* («номаълум ер») ёки *Terra Australis Incognita* («номаълум жанубий ер») борлигини башорат қилишган. Австралияни 1606 йили голландиялик денгиз сайёҳи В.Янсзон кашф қилган ва *Янги Голландия* деб атаган.

Австралия қитъаси голландлар томонидан кашф этилгандан сўнг, бу ерда дастлаб голландча номлар пайдо бўлган. Дерк Хартог ва Питер Найт ороллари - шу ерларни кашф этган голланд денгизчилари номи билан, Лувен бурни ва Арнемланд ярим ороли голландлар кемалари - «Лувен» ҳамда «Арнем» шарафига қўйилган. Австралиянинг жанубий қисмини ўрганган ва энг йирик оролини кашф этган Абел Тасман шарафига орол Тасмания деб аталган.

Жеймс Кук 1770 йилда Австралияга экспедиция уюштириб унинг шарқий соҳилларини кашф этди ва уни *Янги Жанубий Уэльс* деб атаган. 1795 йилда Австралия қирғоқларини ўрганишга келган инглиз гидрографи М.Флиндерс, қитъани Австралия (лотинча, *australis* - «жанубий ер») деб аташни таклиф қилган. Машҳур денгизчи Флиндерс шарафига Австралиядаги орол, дарё, тоғ уни номи билан аталган. Австралия - ном сифатида қитъанинг ҳақиқий географик ўрнини ўзида мужассам этганлиги туфайли у барчага маъқул бўлган. Кейинчалик ушбу ном *Янги Голландия*, *Янги Жанубий Уэльс* каби муваққат номларни сиқиб чиқарган ва XIX асрдан эътиборан, қисқача Австралия шакли қарор топди.

Антарктика - қитъа номи. Антарктикага Антарктида материги, Атлантика, Ҳинд ва Тинч океанларининг шу материкка туташ қисмлари, шуниндек Антарктида яқинидаги ороллар киради. Антарктида - жанубий қутбнинг марказий қисмини эгаллаган материк. Антрактида - номини пайдо бўлиши ҳам Антарктика сўзи билан бевосита боғлиқ. Топоним таркибидаги - ид суффикси юнон тилида, эйдос - «ўхшаш», «монанд» маъносида қўлланиладиган сўз. Рус денгизчилари (Ф.Ф.Беллинсгаузен ва М.П.Лазарев)

томонидан 1820 йилда кашф этилган. Материкнинг умумий қиёфаси XIX асрда харитага туширилган. Халқаро - ҳуқуқий шартномага асосан Антарктикадан бутун дунё мамлакатлари умумий ва тенг миқёсда, фақат тинчлик мақсадида фойдаланишлари мумкин. Шартнома туфайли бу ерда эркин илмий тадқиқот ишлари олиб бориш мумкин.

Антарктика қитъаси номи таркибидаги анти - «тескари», «қарама - қарши» маъносидаги қўшимча. Арктика - сўзи юнон тилида, арктикос - «шимолий». Қадимги юнонлар шимолий қутб атрофида жойлашган ерларни арктикос - «шимолий» ер деб аташган ва уни Катта Айиқ (Етти қароқчи) юлдузлар туркуми остида жойлашган деб ҳисоблашган. Антарктика - арктикага қарама-қарши томонда жойлашган жанубий қутб. 1886 йили инглиз океанографи Жон Меррей томонидан жанубий қутбдаги қитъа Антарктика номи билан харитага киритилган. Шу даврдан бошлаб, энг сўнги кашф этилган қитъа, фанда ва барча турдаги географик хариталарда шу ном билан мустаҳкам ўрнашиб қолди.

Океанлар номланиши. Океан - лотинча, «дунё дарёси» маъносидаги сўз. Кишилиқ жамиятининг ривожланиши ва кундалиқ эҳтиёжларнинг ортиб бориши янги ҳудудларни ва табиатнинг таркибий қисмларини ўзлаштиришга олиб келди, бу эса ўз навбатида жой номлари қўпайишига сабаб бўлди. Янги ерларни излаш, қисқа савдо йўлларини топиш каби ҳолатлар, дунё океани ва уларнинг таркибий қисмлари (денгиз, бўғоз, қўлтиғ) ҳақида қўплаб топонимик маълумотларни тўплаш имкониятини берди.

Ер шари юзасининг салкам 71 фоизини 4 та - Тинч, Атлантика, Ҳинд ва Шимолий Муз океанлари эгаллаган. Океанларнинг айрим қисмлари денгиз дейилади. Қуруқликда сув тўлиб қолган чуқурликлар қўллар деб аталади. Баъзан ўта катта қўллар денгиз (Каспий, Орол, Байкал) деб ҳам юритилади. Ер ости ва ер усти сувлардан ҳосил бўладиган катта оқар сувлар дарёлар дейилади. Кичикроқ дарёлар сойлар, кичик сойлар эса жилғалар номини олган. Дарё ёки сойга қўшиладиган сувлар ирмоқлар, улардан ажралиб чиқадиган сувлар тармоқлар деб юритилади.

1650 йилда голланд географи Б.Варениус Дунё океанини 5 та алоҳида қисмга: Тинч, Атлантика, Ҳинд, Шимолий Муз ва Жанубий Муз океанларига бўлди. 1845 йилда Лондон география жамияти ҳам буни тасдиқлади. Кейинроқ баъзи олимлар Дунё океанини фақат 3 га ажратадилар: Тинч, Атлантика ва Ҳинд океанлари. XX асрнинг 30 йилларидан бошлаб Арктика ҳавзаси синчиклаб текширилгандан кейин, 4 алоҳида океан ажратилди: Тинч, Атлантика, Ҳинд ва Шимолий Муз океани.

Тинч океани - дунёдаги энг катта ва чуқур (Марианна чўкмаси -11022 метр) океан. Дунё океани майдонининг яримини Тинч океани ташкил этади. У ғарбда Осиё ва Австралия, шарқда Шимолий ва Жанубий Америка, жанубда Антрактида оралиғида жойлашган. Беринг бўғози орқали Шимолий Муз океанидан ажралади. Атлантика ва Ҳинд океанлари билан умумий чегараси мавжуд. Ўртача чуқурлиги 3984 метр.

1513 йили испаниялик конкистадор *Васко Нуньес де Бальбоа* Панама бўйини орқали ўтиб, бепоён сувни кўрган ва унга *Mar del Sur* - «Жанубий океан» деб ном берган. 1520 йили дунё бўйлаб айлана сайёҳатга чиққан Фернандо Магеллан экспедицияси уч ойдан кўпроқ муддат океан сувларида сузиб бирон бир катта тўлқин ёки бўронга дуч келмаган. Дастлабки таасуротларга асосланиб Ф.Магеллан уни *Mar Pacifico* - «Тинч океан» деб атаган.

Француз географи Бюаш 1752 йили майдон жиҳатдан дунёдаги энг катта океанни Улуғ океан деб номлашни таклиф қилган. Бу ясама ном географик нуқтаи назардан тўғри бўлса ҳам, аммо кўпчиликка маъқул бўлмаган. Шу сабабдан, дунё географиясида Ф.Магеллан томонидан берилган Тинч океани номи сақланиб қолди. 1917 йилгача нашр этилган рус хариталарида Шарқий океан номи билан қайд қилинган. Абу Райҳон Беруний харитасида Шарқий океан, XX асрнинг бошларида нашр этилган ўзбекча китобларда Баҳри муҳити Кабир деб ёзилган.

Атлантика океани - Ер шарида катталиги жиҳатдан Тинч океанидан кейин иккинчи ўринда турадиган океан. Атлантика океани шимолда

Гренландия ва Исландия ороллари, шарқда Европа ҳамда Африка, ғарбда Шимолий ва Жанубий Америка, жанубда Антрактида орасида жойлашган. Узунлиги шимолдан жанубга 15 минг км, энининг энг камбар жойи 2830 км. (экватор яқинида), ўртача чуқурлиги 3926 м.

Атлантика океани инсониятга қадим замондан маълум бўлган, энг катта сув ҳавзаси ҳисобланади. Уни шарқда Укёнус, Акбар (буюк), Аъзам (улуғ), кун ботиш томонида жойлашганлигидан - Мағрибий, Зулмат деб аташган. Ҳозирда у муҳим иқтисодий ва стратегик аҳамиятга эга. Атлантика океанига дунё кемаларида ташиладиган юкларнинг 60 фоизи, балиқ овлашнинг 40 фоизи тўғри келади. Дунёдаги энг катта портларнинг кўпчилиги Атлантика океани ҳавзасида жойлашган.

Қадимги Юнон тарихчиси Геродот (милоддан аввалги V аср) асарларида ном илк бор Атлантис денгизи шаклида учрайди. Римлик олим Плиний (милодий I аср) океанга нисбатан *Oceanus Atlanticus* - Атлантика океани номини қўллаган. Ўрта асрларда океан қисмлари Шимолий денгиз, Ғарбий денгиз, Ташқи денгиз каби номлар билан аталган. Океаннинг ҳозирги ҳолати билан боғлиқ бўлган тасаввурлар XVII асрда пайдо бўлган.

Атлантика номининг пайдо бўлишини мутахассислар, қадимги Юнон мифологиясида осмонни ўз елкасида кўтариб турган само худоси Атлант номи билан боғлиқ деб ҳисоблашади. Қадимги юнонлар, куруқлик Ўрта ер денгизидан ғарброқда тугайди, осмон гумбазини эса Зевс томонидан умрбод жазога маҳкум этилган паҳлавон Атлант ўз елкасида кўтариб туради деб, тасаввур қилишган.

Океан номининг бошқача изоҳлари ҳам бор. Атлантика - афсонавий Атлантида ороли номидан олинган. Платон асарларидаги ривоятларга кўра, Атлантида тахминан, Гибралтар бўғозининг ғарбида жойлашган қадимий ўлкан орол. Ери серҳосил, аҳолиси зич жойлашган. Зилзила натижасида океан қаърига чўкиб кетган. Атлантидани мавжуд бўлганлиги ва ҳалокатга учраши сабаблари фанда ханузгача муаммо бўлиб қолмоқда. Бошқа талқинда, финикияликлар ғарбий томонни атлат - «тун», «қаронғулик» деб

атаганлар ва Атлас тоғлари, Атлантика - «ғарбий қаронғулик» номлари пайдо бўлган.

Ҳинд океани - Дунё океанлари орасида катталиги жиҳатдан Тинч ва Атлантика океанларидан кейин учинчи ўринда туради. Шимолий тропик чизиғидан бутунлай жанубда жойлашган. Ҳинд океани Атлантика ва Тинч океани билан катта масофада туташган. Атлантика океани билан чегараси шартли равишда Африка жанубидаги Игна бурни, Тинч океани билан чегараси Тасмания оролидаги Жанубий бурун орқали ўтказилади. Ҳинд океани жуда катта масофада Антрактида билан туташиб турсада, бошқа океанларга нисбатан анча илик. Ўртача чуқурлиги 3711 метр.

Ҳинд ва Ҳиндистон Ўрта Осиёликларга азалдан маълум ном. Ҳинд - сўзи қадимий санскрит тилида синд, синдху - «дарёлар отаси». Ҳинд дастлаб дарё номи бўлган, кейинча бу ернинг аҳолиси ҳам ҳиндулар деб аталган. Ҳозирги замон тарихида давлат, ярим орол, тоғ тизмаси, океан номига ҳам шу сўз асос вазифасини бажаради. Ҳинд океани ҳақидаги дастлабки тасаввурларга унинг соҳилларида яшаган халқлар эга бўлганлар.

Ўрта Осиёлик Абдураззоқ Самарқандий Ҳиндистонга денгиз орқали саёҳат қилган. Ҳинд океани ва Ҳиндистон тўғрисида тўплаган маълумотларни ўз асарларида ёзиб қолдирган. Топоним илк бор милодий I асрда Плиний асарларида – *Oceanus Orientalis Indidcus* - Шарқий Ҳинд океани шаклида қайд қилинган. XVI асрдан бошлаб ном дунё хариталарида Ҳинд океани шаклида ёзилмоқда.

Шимолий Муз океани (аввалги номлари: Шимолий Қутбий денгиз, Шимолий Муз денгизи) - Шимолий қутб атрофида, Европа, Осиё ва Шимолий Американинг шимолий қирғоқлари оралиғида жойлашган океан. Майдони бўйича океанлар орасида энг кичиги, ўртача чуқурлиги 1220 метр. Атлантика ва Тинч океанлари билан бўғозлар орқали туташган. Шимолий Муз океани дастлаб мустақил океан сифатида 1650 йилда голланд географи Б.Варрениус томонидан ажратилган ва ўша даврда Гиперборей океани деб аталган.

Гиперборей қадимги юнон тилида *ὑπέρ* – кўпликни билдирувчи кўшимча, *Βορέως* – борей, шимолий шамол худоси, шимолнинг рамзи, яъни Чекка Шимолий океан маъносини ифодаловчи сунъий яратилган ном. 1845 йилда уни Лондон география жамияти Шимолий Муз океани деб атади. XVII-XVIII асрлар давомида Муз денгизи, Мурманск денгизи, Шимолий денгиз, Татар денгизи деб аталган.

XIX асрдан бошлаб бир қатор Европа мамлакатларида Арктика океани деган ном ҳам қўлланилган. Арктикада XIX асрнинг 20 йилларида илмий тадқиқот ишлари олиб борган рус денгизчиси, адмирал Ф.Р.Литке ҳам уни Шимолий Муз океани деб номлашни таклиф этган. 1935 йилдан бошлаб алоҳида океан сифатида ажратилган. Сўнги йилларда, жанубий ярим шарда - Антарктика атрофида бешинчи океан - Жанубий Муз океани ҳам ажратилмоқда.

1.2. O'RTA ASRLARDA TOPONIMIKA

Geografik nomlarning ma'nosini, ularning kelib chiqishini, o'zgarishini bilishga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Toponimikaga oid ma'lumotlar qadimgi dunyo olimlari asarlarida ko'plab uchraydi. Chunonchi, Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Pomponiy Melaning "Xorografiya", Pliniyning "Tabiiy tarix" nomli asarlarida ko'pgina toponimik ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda ham toponimikaga qiziqish qadimdan boshlangan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Ma'sudiy", "Hindiston", "Saydana", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ibn Sinoning "Dengiz qirg'oqlari" asarlarida toponimikaga oid juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin. Toponimik ma'lumotlar muallifi noaniq "Hudud al - olam" nomli geografik asarda ham mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari mumtoz o'lkashunoslik asari bo'lishi bilan birga unda toponimikaga oid juda ko'p ma'lumotlar bor.

X - XI asrlarda yashagan Abu Rayhon Beruniy o'z davrining buyuk olimi - astronom, matematik va geograf bo'lgan. U 973 yili 4 sentabrda Xorazmdagi Kot (hozirgi Beruniy) shahrining chekkasida tug'ilgan va 1048 yilda 75 yoshda G'aznada vafot etgan. Uning ilmiy merosi orasida toponimikaga oid ma'lumotlar ko'p uchraydi. Uning geografik va toponimik merosi "At-Tafhim", "Qonuni Ma'sudiy", "Geodeziya", "Hindiston", "Minerologiya", "Osori boqiya", "Saydana" kitoblarida keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asarida toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlari mavjud. Chunonchi, yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib, o'z talaffuzlariga moslab ishlatganliklari oqibatida ayrim so'zlarning ma'nosi o'zgarib ketganini ta'kidlaydi. Masalan, turkiycha tosh so'zini arablar shosh deb talaffuz qilishidan ma'no o'zgarganini aytadi. "Saydana" kitobida 400 dan ortiq qishloq, tog', daryo, shahar va orollarning nomlari tilga olingan. "Qonuni Ma'sudiy" kitobida 603 ta joy nomi ko'rsatilgan.

Abu Rayhon Beruniy Mo'ltan shahri nomiga quyidagicha izoh bergan: "Mo'ltonning (asl) nomi Koshiyapura edi. Keyin Hansapura, keyin Bashapura, keyin Sanbhapura va keyin Mo'lastxona, ya'ni "Asl joy" deb nomlanadi; mo'l - "asl", tona - "joy" demakdir" deydi (H.Hasanov, 1985). "Mineralogiya" kitobida konlarning geografik tarqalishi, qaysi toshning qaysi tog', qaysi daryo vodiysi va qaysi qishloqdan qazib olinishi haqida yozishi bilan birga ayrim tosh, minerallarga izoh ham bergan.

Beruniy tomonidan yaratilgan dunyo xaritasida qirqqa yaqin joy nomlari ko'rsatilgan. Beruniyning zamondoshlari ma'lumotlariga ko'ra olim 170 dan ko'p asar yozgan, ammo ularning bir qismi, jumladan "Xorazm tarixi", "Iqlimlar taqsimoti" nomli yirik asarlari bizgacha yetib kelmagan.

O'sha davrda ma'lum bo'lgan Atlantika okeani qirg'oqlari Tinch va Hind okeani, yettinchi iqlim mamlakatlari - shimoliy o'lkalar ko'llar va dengizlar, shaharlar, barcha turdagi geografik nomlar izohi, uning asarlarida tasvirlangan. Chunonchi, Jurjon (Kaspiy) dengizi bu haqiqatda Hazar dengizidir. Olimning yozishicha dengizning sharqiy tomonida Jurjon yerida, Obaskun degan bandar (port) borki, dengiz ham uning nomi bilan Obaskun deb ataladi. Dengiz qirg'oqlaridagi viloyatlar nomi bilan yuritiladi. Ammo bizga Xazar nomi bilan ma'lum qadimiy xalqlarda Jurjoniya nomi bilan ma'lumdir, Ptolomey uni Irqoniya (Girkoniya) dengizi deb atagan. Bu dengiz boshqa dengiz bilan qo'shilmaydi. Mana Beruniyning "Qonuniy Mas'udiy", "At-Tafhim" asarlarida berilgan Kaspiy dengizi - toponimining geografik izohi.

Beruniy asarlarida Binkat, Shosh shaharlaridan biri, turkiycha Toshkent, bu yunon mualliflarida Burj al-Xurja qal'asidir. Demak, turkiyda toponim Toshkent, forsiyda Choch, Binkat, arabcha Shosh bo'lib, barchasining ma'nosi turkiycha Tosh shahri nomining tarjima va o'sha tilga mos talaffuz etilishidir.

Beruniy Sharhsabz shahrini Kesh shahri, forslar uni Ma'jomat deb yuritgan deb xabar beradi. Sirdaryo etaklaridagi Yangikent (hozirgi G'azalkent shahri ro'barasida, daryoning chap sohilidagi xarobalar) turli xalqlarda turlicha atashgan deb yozadi. Mahalliy turkiylar Yangikent -Janikent deb yuritgan, arablar uni

“Qariyat al- xodisa” (Qariyat - qishloq, hodisa - yangi) yoki Madinat al-jadida (Madina shahar, jadida yangi) fors- tojikcha Dehinav deb yuritgani haqidagi aniq misolar orqali izohlagan.

Beruniy asarlarida Sirdaryoning eng qadimgi nomi Xasart daryosi deb qayd qilingan. Miloddan avvalgi davrlarda yunonlar Yaksart deb yozganligi haqida ma'lumotlar bor. Beruniy asarlarida hozirgi geografik xaritalarida o'zgartirilib yoziladigan yoki butunlay boshqa nom bilan ataladigan toponimlar juda ko'p.

Masalan, fam al-Asad - sher og'zi - dahani sher deb yuritilgan joyni hozir Donisher, Zaim va Omuyya – Karki va Chorjuy shaharlari, Mazdubast - Amudaryodan Sariqqamishga oqqan daryo va boshqalar. Bunday toponimik ma'lumotlar sharq tarixiy geografiyasini o'rganishda eng ishonchli manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Beruniy o'zidan 800 yil oldin yashagan Ptolomeyning Amudaryo haqidagi yozganlarini keltirib, Omuyya shahridan yuqorida Balx daryosiga quyilib, keyin Bolqon shahri yaqinida Xazar dengiziga quyilgan degan fikrni bayon qilgan. Xazar esa g'uz yerlarining chekkalaridan burilib ketadi.

Fam al-Asad nomli joyda suv to'planib, daryo suvining bir qismi Xorazm bilan Jurjon orasida joylashgan cho'ldagi Mazdubast deb atalgan daryo o'zanidan Sariqqamishga oqqanligini xabar beradi. Demak, ulug' allomalarning asarlarida jamiyat va tabiat tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, allomaning geografiyaga doir ilmiy merosi tabiiy muhitning ritmik taraqqiy etish qonuning aniq bir hududga tadbqiq etish imkonini beradi.

Muallifi noma'lum “Hudud al - olam” (X asr) – tarixiy-geografik asar bo'lib, 982-983 yillarda fors-tojik tilida noma'lum muallif tomonidan yozilgan. Asarda yer kurrasining inson yashab turgan qismidagi mamlakatlar iqlimi, tabiati, xalqlari, urf-odatlar, mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Qo'lyozmani 1892 yilda tarjimon Abulfazl Gulpaygoniy Buxorodan topib, 1893 yili sharqshunos A.G.Tumanskiyga bergan. 1930 yili V.V.Bartold “Hudud

ul-olam” matnini so’zboshi va izohlar bilan rus tilida va 1937 yili esa rus sharqshunosi V.F.Minorskiy ingliz tilida nashr etgan.

H.Hasanov ushbu kitob haqida katta maqola yozgan va uning bir qismining o’zbekcha tarjimasini keltirgan. Kitobda toponimika va terminshunoslikka oid ma’lumotlar ko’p. Unda Buxoro, Farob, Paykent, So’g’d, Tavovis, Chag’oniyon, Karmina, Dabusiya, Arbinjon, Kushon, Samarqand, Kesh, Termiz, Zomin, Jizzax, Farg’ona, Axsikat, Qubo, Shosh, Kat, Gurganj va boshqa joylar haqida ma’lumotlar bor.

Asarda keltirilgan ko’p sonli tarixiy toponimlar esa vatanimiz joy nomlarining naqadar qadimiy ekanligi isbotidir. Umuman olganda kitobda Movarounnahr, xususan, O’zbekiston geografiyasi, ayniqsa toponimiyasi haqida talaygina ma’lumotlar olish mumkin.

Muhammad Narshaxiy tomonidan yozilgan “Buxoro tarixi” kitobi ham nodir toponimik manba hisoblanadi. Kitobda O’rta Osiyo xalqlari, xususan Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlar, xalqlarning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma’lumotlar bilan birga, o’sha davrdagi geografik nomlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Asarda Rudi Mosaf (Zarafshon daryosi), Afshina, Zandana, Vardana, Varaxsha, Haromkom, Safna, Nur, Xarqonro’d, Isfana kabi nomlarga batafsil sharh berilgan.

“Buxoro tarixi” kitobida keltirilgan nomlarning qiymati shundaki, unda keltirilgan nomlarning ko’plari arablar istilosidan oldingi nomlardir. Masalan, asarda Ko’shki Mug’on, Mug’on kabi majusiy nomlar uchraydi, muallif bu viloyatlarda otashparastlarning ibodatxonalari ko’p bo’lganligini ta’kidlaydi.

Abu Abduloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf Al-Xorazmiy Xorazmda tug’ilib o’sgan va 975-991 yillar Nishopurda yashab ijod etgan. U “Mofotix al-Ulum” (“Ilmlar kaliti”) nomli ikki kitobdan iborat asari bilan mashhur olimdir. Asarning ikkinchi qismi oltinchi bobi geografiyaga bag’ishlangan va unda geografiyaga doir atamalarning to’la izohi berilgan. Mazkur bobda Xuroson va Muvorounnahrda doir ma’lumotlar ko’p. Shaharlarning kengligi (arzi), uzunligi (to’li) haqida aniq ma’lumotlar bayon qilingan.

Olim yerning ma'lum, "obod" qismi, ekvatoridan shimolda joylashganligi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirgan. Arab tilida yozilgan bu asarda Farg'ona, Xo'jand, Qashg'ar, Shom, Ustrushona, Samarqand, Buxoro, Shibirg'on kabi geografik nomlar ta'riflangan

O'rta Osiyo va Sharq lug'atshunosligida M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asari katta ahamiyatga ega. Ota bobolari Issiqko'l bo'yidagi Borsg'on shahridan bo'lgan xizmat taqozosi Qashg'arga borib qolganlar. Mahmud o'sha davr hukmronlarining yirik markaz shahari Qashg'arda diniy bilimlar bilan birga astronomiya, geografiya, matematika va boshqa dunyoviy bilimlarni ham egallagan. Buxoro va Bog'dodda o'z bilimlarini mukammallashtirish uchun davom ettirgan. Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasini talqin etish maqsadida, Mug'ilistondan Qora dengiz bo'ylarigacha bo'lgan keng hududlarda yashagan turkiy qabilalar orasida yurib, ma'lumotlar to'plagan.

To'plagan ma'lumotlar asosida 1074 yilda "Devoni lug'atit - turk" asarini yozib, tugatib, 1077 yilda uni xalifa Muqtadirga taqdim etadi. M.Qoshg'ariyning umumiy turkiy tilarni o'rganish, turkiy til shevalarining qiyosiy grammatikasini tuzish folklor va etnografiya sohasidagi xizmatlari nihoyat katta. Shu bilan birga turli fanlarning atamashunosligini yaratish va geografiya faniga ham o'lgan hissa qo'shgan. Qoshg'ariyning geografik merosi asosan besh yo'nalishda o'z mazmunini topadi. (H.Hasanov 1981)

- tabiiy geografik atamalar va ularning izohi;
- ilova qilingan dunyo xaritasi;
- joy nomlari va ularning izohi;
- ayrim qabilalarning joylashishi haqida;
- taqvimlar tizimi – muchalar va ularning tarixi.

M.Qoshg'ariyning geografik merosi birinchi galda geografik atamalar tahlilidir. Tabiat va tabiiy hodisa, tabiiy jarayon hususan cho'l, tog', iqlim yer, suv, hayvon, o'simlik va boshqalarga doir iboralar izohiga olim alohida o'rin bergan. Qoshg'ariy ishlatgan ariq, buz, (muz), bulut, yomg'ir, yoz, kechik, kent, kuz, kun, ko'l, oy, ort,(davon) oqim va oqindi, sel va selindi, suv va

suvloq, tog', tuz, (tekis) tuman, ungur, chaqmoq, yayloq, yashin, qayir, qoq, qir, qish va qishroq, qor, qo'ltiq, qum, va boshqa so'z iboralarni ishlatgan, ularning izohini bergan.

Olimlarning yozishicha, bu so'z va iboralarning ba'zilari 12- asrga mansub O'rxun bitiklarda, Qultegin yodgorliklarida uchraydi. "Devon" da bu so'zlarning ishlatilishi va ularning ko'pchiligi hozirda ham istemolda ekanligini hozirgi o'zbek geografik atamashunosligining mustahkam qadimiy zaminga ega bo'lishini ko'rsatadi. Yer va tuproqqa doir so'zlarni izohiga kengroq o'rin berilgan. Chalang yer – qora yer, bout-sho'r yer, sag'izlik - sog' tuproqli yaxshi yer, sag'iz tuproq – toza tuproq, sog' tuproq, toza yer-o'simligi kam yer, oriq, hosillar. Qayir yer – yumshoq tuproqli yer, tekis yer, qumloq yer; takidlash lozimki, qayir hozirgi geografiya fanlarida ko'p ishlatiladigan daryo vaqtinch suv bosadigan qumloq-toshloq qismiga aytiladi.

Boldir tog' – tog' burun, tog'ning tekislik ichiga kirib ketgan tarmog'i. Hozirgi toponimlarda uchraydigan boldir so'zini osongina izohlash mumkin. Muzrabot tumanidagi Boldir temir yo'li bekati haqiqatdan ham Ko'hitang tarmoqlarining bir bo'lganligi uchun shunday atalgan. Ort - orqa, bo'yin, gordon, tog' dovoni, badalort, Ko'kort, Qizilort, Muzort, Oqort kabi O'rta Osiyodagi davonlar nomi nima uchun shunday nomlanganligini bilib olsa bo'ladi. Qurug' - amirlari boqiladigan ko'katzor, atrofi qurshalgan joy. Qo'riqning hozirgi ma'nosi - qo'riqlanadigan dahlsiz tabiat kompleksi. Qo'riqxona, zapovednik so'zlarining o'zagi, qo'rig' so'zi 10-asrdayoq hozirgi ma'nosiga o'xshash mazmunda ishlatilgan.

Ob-havoga - meteorologiyaga oid so'zlar atmosfera hodisasi, osmon hodisasini ifodalash ushbu qimmatli asarda o'z ifodasini topgan. Masalan, taltog' har tarafdin esgan qattiq izg'irin shamol, qarog'u - qirov, bulut sugoldi – bulut tarqaldi, erkin yomg'ir – bir necha kun to'xtamay yog'adigan yomg'ir. Geografik nomlarning talqiniga asarda katta o'rin berilgan - Bolosug'un bekklik, mo'g'ulcha g'ubalik - go'zal shahar, Barsg'on yoki Basrxon - Issiqko'l bo'yidagi shahar, kishi nomidan olingan.

H.Hasanov tadqiqotiga devon da ishlatilgan 70 ta joy nomi Beruniy asarlaridan olingan. Shu bilan birga Beruniy asarlarida tilga olinmagan Toshkentdan g'arbiy Xitoygacha masofada ko'pchilik joy nomlari ham berilgan. Shunday qilib, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy va Hudud ul-olamning muallifi O'rta Osiyo geografiya nomshunosligi va toponimiyasining asoschilaridirki, ulardagi ilmiy merosni chuqur o'rgangan geografiya tarix va tilshunoslik fanlarining hali aniqlanmagan sahifalarini to'ldirishi aniq.

II – BOB. O'RTA OSIYO OLIMLARI VA TOPONIMIKA

2.1. O'RTA OSIYO OLIMLARI VA TOPONIMIKA

Zamonaviy toponimikani o'rta asrlarda yashab ijod qilgan O'rta Osiyolik olimlarning xizmatlarisiz tasavvur qilish qiyin. O'sha davrda O'rta Osiyoda yozilgan tarix, geografiya, tilshunoslikka oid asarlarda toponimikaga oid ma'lumotlarni ko'plab topish mumkin. Masalan, 982-983 yillarda, fors-tojik tilida, noma'lum muallif tomonidan yozilgan «Hudud ul-olam» tarixiy-geografik asarda Movarounnahr viloyatlari, shaharlari, tog'lari, daryolari va ularning nomlari, ayniqsa hududning qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma'lumotlar topish mumkin.

Kitobda o'sha davrda ma'lum bo'lgan viloyatlar va podshohliklar, ularda yashovchi qavmlar ularning urf-odatlarini, rasm-rusumlari hamda har bir shaharning tabiiy-geografik sharoiti ta'riflangan. Masalan So'g'd va Ustrushona sharqiy ellar orasida eng obod joy, u yerda oqar suvlar ko'p, iqlimi bahavo, odamlari mehmondo'st va xushmuomala deb ta'rif berilgan. V.V.Bartold bu asarga katta ahamiyat berib o'zining bir qancha maqolalarida undan parchalar keltirgan.

O'rta Osiyo va O'zbekistondagi joy nomlariga oid yozma ma'lumotlarni Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig'», Beruniyning «Qonuniy Mas'udiy», «Hindiston», «Saydana», Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» kabi asarlarda uchratish mumkin. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy joy nomlariga izoh berib shunday yozgan: « ... ammo, aksari mamlakatlarning nomlari hozirgi vaqtdagi nomlaridan farq qiladi. Xususan, tili boshqa bo'lgan qabilalar biron joyni egallaganlarida nomlar tez-tez o'zgarib turadi. Boshqa xalq mahalliy nomlarni buzib talaffuz etadi... Nomlarning ma'nosini boshqa tilga tarjima qilganda yoki talaffuzini osonlashtiradigan tovushlar bilan yozganda nomlar o'zgarib ketadi. Ko'pincha arablar chet el nomlarini, arabchalashtirib, shunday o'zgartiradilar va buzib aytadilar».

Turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar etnografiyasi va etnik tarixini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» nomli asari alohida o'rin egallaydi. Kitobda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik

tarkibi, ijtimoiy tuzumiga oid qisqa ta’rifi, etnotoponimikasi va ayrim qabila hamda urug’larning joylanishi to’g’risida noyob ma’lumotlar keltirilgan. «Devonu lug’atit-turk»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki, unda toponimlarning etimologiyasi, semantikasi, grammatik xususiyatlari, qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o’simlik va hayvonot nomlariga doir qiziqarli ma’lumotlarni topish mumkin. S.Qorayev ma’lumotlariga ko’ra, asarda jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan. H.Hasanov esa kitobni qimmatli geografik manba hisoblab u to’g’risida alohida asar yozgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, geografik nomlarni ilmiy asosda talqin qilishni Sharq o’rta asr olimlari ishlarida kuzatish mumkin. XIII-asr geografik ma’lumotlarini to’plab o’n jildlik «Mu’jam al-buldon» (Mamlakatlar lug’ati) nomli geografik lug’atni tuzgan olim Yoqut Hamaviydir. V.V.Bartold yozishicha, Yoqut Hamaviy o’sha davrdagi bir qator musulmon davlatlariga sayohat qilib, ko’p ma’lumotlar to’plagan va ularning asosiy shahar va qishloqlari haqida yozib qoldirgan. A.L.Xromov esa Yoqut Hamaviyni O’rta Osiyo va Sharq musulmon davlatlarining birinchi toponomisti deb ta’riflagan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, uning geografik nomlarning sharhlashda qo’llagan usuli hozirgi toponimikada geografik nomlarni topoformantlar asosida izohlash usuliga juda o’xshaydi. Olim geografik nomlar tarkibida bir xil unsurlarning takrorlanishini birinchi bo’lib payqagan.

Masalan, shahar va qishloqlarning nomlari tarkibida keladigan «obod» unsuri fors-tojik tilida aholi punkti ma’nosini bildiradi deb yozgan edi. «Obod»-unsuri hozirda ham geografik nomlar tarkibida keng qo’llaniladi. Hozirda obod so’zi nafaqat aholi punkti ma’nosida qo’llaniladi balki, ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo’shilib joy nomini yasaydigan, obodonlashtirilgan, o’zlashtirilgan, gullab-yashnagan ma’nosidagi so’z hamdir.

O’rta Osiyo toponimiyasiga oid ma’lumotlarni Rashiddin, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro’, Hofiz Tanish Buxoriy, Abulg’oziy Bahodirxon, Abu Tohirxo’ja, Ahmad Donish kabi allomalar asarlaridan topish mumkin. Mutaxassislar fikricha, X- XIII asrlar Movarounnahr

toponimiyasining katta qismini islomgacha bo'lgan davrdan meros qolgan sharqiy eroniy (so'g'd, boxtar, xorazmiy) tillarga xos toponimlar tashkil qilgan. Keyingi davr Movarounnahr toponimiyasining shakllanish jarayoni turkiy qatlamning kuchayishi, natijada sharqiy eroniy toponimik qatlamning siqib chiqarishi bilan bog'liq.

O'rta Osiyoda yozilgan memuar asarlarning durdonasi hisoblangan «Boburnoma»da ham ko'pgina joy nomlariga doir qimmatbaho ma'lumotlar mavjud. H.Hasanovning ta'kidlashicha, «Boburnoma»da mingga yaqin geografik nom tilga olingan. O'rta Osiyoga doir nomlarning ko'pchiligi hamon o'sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. «Boburnoma»dagi geografik nomlarning aksariyatini hozirgi o'zbek va tojik tilida izohlash mumkin. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o'zi tushuntirib o'tgan. «Boburnoma»da geografik atamalar shu qadar ko'pki, ularning ko'pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba'zi birlari butunlay iste'moldan chiqib ketgan.

O'rta asrlarda toponimik qonuniyatlarni aniqlash usullari kashf etilmaganligi bois, toponimlarning ma'no xususiyatlari ko'pincha farziyalarga asoslangan holda izohlangan. Qadimiy va o'rta asrlar manbalarida qayd qilingan toponimlar, geografik terminlar, o'simlik va hayvonot nomlari, etnonimlar, antroponimlar geografik jihatdan to'laroq o'rganilishi kerak.

2.2. O'ZBEKISTON OLIMLARI VA TOPONIMIKA

Joy nomlari va geografik obyektlarning atoqli otlari hamma vaqt muayyan informativ – axborotlar manbai hisoblanadi. Buning ustiga XX asr boshlarida qator fanlar alohida ilmlar sohasi sifatida shakllanib, ularning muayyan tushuncha qoida va qonunlarni ifoda etuvchi ilmiy termin, soʻz, iboralarni lugʻaviy jihatdan izohlash koʻp tartibga qoʻyilgan. Oʻzbekistonda tabiiy fanlar - geologiya, geografiya, geomorfologiya, biologiya biogeografiya, tuproqshunoslik, fizika, kimyo va boshqa ilm sohalarida yangi terminlar paydo boʻldi. Bu ilmiy ifodalarning oʻzbek tilida mazmun-mohiyatini aks ettirgan ekvivalentlik muhbilini topish va izohlashga ehtiyoj kuchaydi.

Tilning lugʻat tarkibiga kirgan bunday ilmiy atamalarni tilshunoslik qonun-qoidalari asosida izohlash ilmiy atamashunoslikning vujudga kelishiga olib keldi.

Geografiya va umuman Yer haqidagi ilmlarda qoʻllaniladigan oʻzbek tilidagi soʻz va iboralarni shu bilan birga boshqa tilardan kirib kelgan soʻzlarni oʻzbek tilining lugʻat boyligi asosida aniq soʻz birikmasi bilan ifodalash masalasida oʻzbek ilmiy merosimizning bilimdoni va targʻibotchisi H.Hasanovning ishlari alohida ahamiyatga ega. Qomusiy ilmlar sohibi boʻlgan ustoz H.Hasanovning 1964 yilda “Fan” nashriyotidan “Ruscha – Oʻzbekcha va oʻzbekcha – ruscha geografiya terminlari” kitobi beqiyos ahamiyati kasb etadi. Kitob geografiya va boshqa tabiiy fanlar uchun manbai boʻlishi qatorida oʻzbek tilida lugʻatlar yaratish tarixi boʻyicha malumotlar beruvchi manba hamdir. Oʻzbek tilida dastlab lugʻatshunos olim. O. Ibrohimov “Geografiya atamaları” nomli kitobini Oʻz.Dav.nashriyoti (Toshkent 1935) chop etirgan. Kitobda geografik nomlar bilan birga yonma – yon geografik terminlar ham berilgan. Hasanovning maʼlumotlariga qaraganda kitobda terminlar maʼlum bir tartib bilan berilmagan. Shunga qaramay, bu lugʻatning oʻzbek tilida chop etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483 - 1530) “Boburnoma” kitobi mumtoz oʻlkashunoslik kitobi boʻlishi bilan birga, unda toponimikaga va

terminshunoslikka oid ma'lumotlar juda ko'p. Xususan Farg'ona vodiysidagi geografik nomlar ma'nosi, etimologiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Andijon, Kandibodom, Isfara, Xo'jand, Ahsi, Xo Darvesh, Sayhun, Marg'ilon haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.

Bulardan tashqari, Abu Hayyon (XIII-XIV asrlar), Jaloliddin Turkiy (XIV-XV asrlar), Mirzo Ulug'bek (XIV-XV asrlar), Abulg'ozixon (XVI asr), Qori Rahmatulla Buxoriy (Voze) (XIX asr) asarlarida toponimikaga va geografik terminshunoslikka oid ma'lumotlar keltirilgan. Bu jihatdan Abulg'ozixonning "Shajarai turk", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Qori Rahmatulla Buxoriyning "Xotiralar", "Sayram risolasi" nomli asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda toponimika va geografik terminshunoslikning XX asrdagi rivojlanishida mahalliy tadqiqotchi olimlar bilan birga O'rta Osiyoni o'rgangan rus olimlarining ham hissasi katta bo'ldi. Bular orasida V.V.Bartold, V.P.Semenov-Tyanshanskiy, E.M.Murzayevlarni alohida ko'rsatish mumkin. Xususan, V.V.Bartold o'zi tarixchi, uning toponimikaga oid maxsus asari bo'lmasa ham, ammo toponimik ma'lumotlar uning barcha tarixiy asarida uchraydi. Uning joy nomlarini izohlashi sodda, ancha aniq va ko'p fikr-mulohazalari ishonarlidir.

U o'z asalarida mahalliy geografik terminlardan yaxshi foydalanadi. Uning asarlarida ariq, jo'y, kom, qir, rabod, tarxon, to'rtko'l, shahriston, yurt kabi terminlar talqinini bergan. V.V.Bartold hayoti va ilmiy faoliyatining katta bir davri O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston va Toshkent bilan bog'liq. Olim tomonidan yaratilgan 685 asaridan 320 tasi Turkistonga bag'ishlangan.

V.P.Semyonov-Tyanshanskiyning "Aholi punktlarining mahalliy nomlarida geografik manzara qanday aks etadi" (1924) asari toponimik jihatdan o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Bu asarda muallif geografik nomlarning paydo bo'lishida tabiiy sharoitning ta'siri haqida aniq ma'lumotlar keltirgan.

E.M.Murzayev yirik geograf olim, toponimist. U O'rta Osiyo, Sinjon, Mongoliyadagi geografik nomlar va xalq terminlarini o'rgangan. Uning "Slovar народных географических терминов" (1984) asari terminshunoslikda katta o'rin

tutadi. Unda ko'pgina mahalliy geografik terminlar ma'nosi izohlangan. Masalan, olimning tahriri ostida chop etilgan "Srednyaya Aziya" (1957) kitobida 100 dan ortiq geografik nomlarning izohi berilgan. Masalan, Oqsuv, Oloy, Amudaryo, Orol, Bodxiz, Darvoz, Qoraqum va boshqalar.

O'rta Osiyo o'lkasidagi geografik nomlarni o'rganishda vengriyalik olim Armeniy Vamberiy (1832 - 1913) ning xizmati katta. O'rta Osiyoga mahfiy sayohat qilgan bu olimning "Buxoro tarixi", "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" kitoblari diqqatga sazovor. Uning lug'atida 600 ga yaqin geografik nom va termin berilgan.

Toponimlarning paydo bo'lishi masalasi bir qarashda juda oddiyga, hech qanday qonuniyat yo'qqa o'xshaydi. Bunda bir qancha misollar keltirish mumkin. Rossiya imperiyasi vaqtida rus qo'shinlari bosib olgan joylarda ruslar mahalliy aholi bilan birga yashashni o'ziga ep ko'rmay, har bir yirik shahar yaqinida rus shahrini qurgan va eski shahar yonida yangi shahar - "gorod" paydo bo'lgan. O'zbekistondagi har bir yirik shahar yaqinida yangi shahar - gorod bo'lib, ular shaharga qo'shilib ketib, farq yo'qolgan. Shunday shaharlardan biri Marg'ilon shahridan 12 km masofada qurilib, unga Novyy Margelan deb nom qo'yilgan. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olon bostirilganidan keyin qo'zg'olonni bostirgan general Skobelev sharafiga shahar Skobelev shahri deb ataladigan bo'ldi. Sovet davrida Farg'ona deb o'zgartirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Ohangaron vodiysida bunyod etilgan konchilar shaharchasiga Ohangaron daryosining ruscha buzib aytilgan nomi Angren qo'yildi. Samarqand yaqinidagi Qiriqtog'da topilgan g'orga ukrainalik g'orshunoslar Kiyev g'ori deb nom qo'yishgan.

1482 yilda sayyoh olim Bartolemeo Dias boshchiligidagi ekspedisiya Afrikani aylanib Hindistonga bormoqchi bo'ladi. Materikning janubiy - g'arbiy qismidagi burun yaqinida qattiq dovulga duch kelib, u yerdan o'tolmay orqasiga qaytadi va burunga "Bo'ronlar burni" deb nom beradi. Portugaliyaga qaytganida uni mamlakat qiroli qabul qilib, xaritada "Bo'ronlar burni" nomini o'zgartirib, "Yaxshi umid" deb yozib qo'yadi. Shu bilan "Yaxshi umid" burni nomi paydo

bo'lgan. Dunay daryosining ikki qirg'og'ida ikkita shahar - Buda va Pesht shaharlari bunyodga kelgan. Keyinchalik ular qo'shilib ketib Budapesht deb ataladigan bo'ldi.

Pokiston davlati nomi ham o'ziga xos yo'l bilan paydo bo'lgan. 1931 yilda Hindiston Angliya mustamlakasi davrida hind musulmonlaridan va milliy harakat rahbarlaridan bo'lgan Choudri Rahmat Ali yangi islom davlati barpo qilish rejasini taklif qilib, Panjob, Afg'oniya, Kashmir, Sind va Balujistonni birlashtirishni o'ylagan hamda nomini mazkur viloyatlar nomi bosh harfini olib, unga iston suffiksini qo'shib, Pokiston deb atagan.

Ba'zan geografik nomlar o'sha joylarning xususiyatlaridan vujudga keladi. Masalan, Shamolli orollar, Shamolsiz orollar, Polineziya (poli - ko'p, nezos - orol), Mikroneziya (makro - mayda, nezos - orol), Melaneziya (mela - qora, nezos - orol), Qorasuv, Saritov, Oqtepa va boshqalar.

Ba'zi geografik joylar nomlari o'sha joylarni tadqiq etgan kishilar nomiga, ba'zan ekspedisiya kemalari nomi, ba'zan tadqiqotchining yaqin kishilari, podshohlar nomi bilan atalishi ham mumkin. Masalan, "Mod", "Foka", "Jannetta", "Vityaz", "Arnem" kemalar nomidagi orollar, yerlar bor. Komandor orollari, Bering bo'g'izi, Dejnev burni, Livingiston sharsharasi va boshqalar esa kishi ism familiyalari bilan bog'liq.

Bu keltirilgan misollarda geografik nomlarning paydo bo'lishida qonuniyatlar mavjudligi ko'zga tashlanmaydi. Aslida bir qancha qonuniyatlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Ko'pgina geografik nomlar til taraqqiyotining dastlabki davrida oddiy turdosh otlardan iborat bo'lib, keyinchalik, vaqt o'tishi bilan atoqli otlarga - geografik nomlarga aylanib ketgan. Masalan: ilgari odamlar oddiygina suv, soy, daryo, qo'rg'on, kent, ko'l, to'qay deb ataganlar. Keyinchalik bu oddiy so'zlar geografik nomga aylangan. Bularga Amur, Jayhun, Don, Edil, Ganga, O'kuz, Nil, Shott nomlari misol bo'ladi. Hammasining ma'nosi bitta, suv demakdir. Aydar - qir, yayla - yaylov, chink - jarlik, alp - tog', rio - suv, xingan - tizma va boshqalar.

2. Oddiy so'zlarga, toponimlarga aniqlovchi qo'shish yo'li bilan geografik nomlar hosil bo'ladi. Bunda aniqlovchi sifat so'z turkumidan, otdan, sondan, ravishdan, sifatdoshdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, sifat qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Yangiqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Oqmachit, Ko'kterak, Yangiobod, Qoradaryo, Oqdaryoni misol qilib keltirish mumkin. Ot qo'shish yo'li bilan Qumqo'rg'on, Toshqal'a, Taxtakoprik, Toshkent, Chimkent, Shoshtepa, G'azalkent toponimlari vujudga kelgan. Son qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Yettiterak, Beshqayrag'och, Uchtom, Qo'shtut, Yakkatut kabi toponimlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Qaynarbuloq, Xo'jabaqirgan, Kuyganyor kabi toponimlar otga ravishdosh qo'shilishidan hosil bo'lgan.

3. Geografik nomlarning bir obyektidan ikkinchi, ba'zan uchinchi, to'rtinchi obektlarga ko'chishi natijasida yangi joy nomlari vujudga keladi. Masalan, Sirdaryo daryosi, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahri, Sirdaryo tumani; Chirchiq daryosi, Chirchiq shahri; Ohangaron shahri, Ohangaron daryosi; Zarafshon daryosi, Zarafshon shahri, Farg'ona vodiysi, Farg'ona viloyati. Ayrim daryolar bo'yidagi shaharlar nomi daryo nomiga suffiks qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. Masalan, Angara daryosi - Angarsk shahri, Tom daryosi - Tomsk shahri, Ij daryosi - Ijevsk shahri, Or daryosi - Orsk shahri.

4. Ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalqlar nomiga - iya, - iston suffikslarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan: Turkiya, Ispaniya, Finlandiya, Vengriya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va boshqalar. Lekin ayrim davlatlar nomining yasalişida - iya, suffiksi xalqlar nomiga emas, balki boshqa so'zlarga ham qo'shilishi mumkin. Masalan, Braziliya (brazil - o'simlik nomi), Kolumbiya (Kolumb - mashhur sayyoh), Islandiya (island - muz mamlakati).

5. Geografik obektlarga nom qo'yishda o'xshatib nomlash ham mavjud. Bu har xil maqsadlarda bo'lishi mumkin. Chunonchi, Amir Temur Samarqandning shuhratini oshirish maqsadida poytaxt atrofiga bir qancha qishloqlar qurib, o'sha vaqtdagi mashhur shaharlar nomini qo'ygan; Damashq, Parij, Sheroz, Bag'dod, Misr va boshqalar. Bularning ba'zilari hozir ham nomini saqlab keladi. H.Hasanov

keltirgan ma'lumotga ko'ra, Yer yuzida 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 5 ta Braziliya, 3 ta Italiya, 7 ta Venesiya, 4 ta Praga, 4 ta Kiyev nomlari mavjud ekan. Amerikada Moskva, Parij, London, Uels, Nyukasl va boshqa shaharlar mavjud.

6. Geografik nomlar umumlashtirish yo'li bilan, ya'ni kichik joy nomini katta hudud yoki obektga ko'chirish natijasida ham vujudga keladi. Bunga misol qilib Osiyo nomini keltirish mumkin. Qadimda Osiyo (Osu) deb Livan, Falastin, Suriya joylashgan kichik hudud atalar edi, keyinchalik bu nom butun qit'a nomiga aylandi. Hozirgi Tyanshan deb ataladigan tog'larning umumiy nomi bo'lmagan,

Har bir tog' tizmasi o'z nomi bilan Chotqol, Qurama, Ko'kshag'al, Talas, Farg'ona va boshqa nomlar bilan atalar, faqat Tyanshanning markaziy qismi Tangritog', Xontangri, deb atalar edi. Xitoylar Tangritog'ni o'z tiliga tarjima qilib, Tyanshan deb atashgan. Keyinchalik bu nom butun tog' tizimining umumlashma nomi bo'lib qolgan. Huddi shunday Yevropa, Afrika nomlari ham umumlashma nomdir.

7. Tarjima qilish yo'li bilan ham shakllanib, yangi nomlar paydo bo'ladi. Bunday nomlar bir joyda turli xalqlar yashaydigan hududlarda yoki bir geografik obekt (xususan daryo, tog' tizmalari) turli xalqlar hududlaridan o'tadigan joylarda uchraydi. Bunday geografik nomlarga Qora dengiz - Chyornoye more, Qorasuv - Siyohrud, Qizilsuv - Surxob, Ilono'tti - Morguzar, Baliqchi - Ribachye, Movarounnahr - Daryo orasi, Qizil dengiz - Bahri muhit Ahmar - Krasnoye more, Yangikent - Dehinov, Temir Darvoza - Jeleznoye vorota, Shaytonmakon - Chertovo gorodiniye va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Toponimika fani alohida ilm sifatida keyingi XX asrda shakllangan bo'lsada tilshunoslik, adabiyot, tarix va ayniqsa geografiya fanlarining rivojlanishi bilan nomlar paydo bo'lishi ma'nosi haqidagi masalalar o'rta asrlarda ijod qilgan olimlarning ishlarida etiborli jihat sifatida qaralgan. Chunki ilm bilan shug'ullangan kishilarning ijodlarida bayon etiladigan voqiyaliklar aniq bir joy, hudud yoki suv akvatoriyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bu hudud yoki geografik

nomi bo'lib, bu nomning ma'nosi qaysi xalq tilidan olingani qachondan boshlab paydo bo'lgani hamisha qiziqarli bo'lgan.

Eng oldingi paydo bo'lgan Osiyo, Yevropa, Liviya (Afrika), Atlantika kabi makrotoponimlar buning isbitidir. Hozirgi Efrat va Dajla daryolari havzasida yashagan oskriya (finikiya)liklar o'zlari istiqomat qiluvchi yerlarning quyosh chiqishi tomonini Osiyo (Asu) kun botish tomonini Yevropa (Yerib) Afrika nomi melodningt boshida yashagan rimlik geogrf Pomponiy mela uchunchi qit'aning nomini Afrika deb rasmiylashtirgan. Undan oldingi davrlarda yunon olimlari Liviya deb O'rta dengiz janubida Yerlarni atagan. Eramizdan oldingi uchunchi asrda Liviya paydo bo'lgan. Keyinchalik Rimliklar Karfogan (hozirgi Tunis doirasini Afrika deb atagan)

XX asrning 50-chi yillaridan boshlab toponimik tadqiqotlar keng quloch yozdi. Toponimik materiallarni to'plash va qayta ishlash sohasida jiddiy ishlar boshlandi. Toponimika bo'yicha maxsus mahkamalar, Geografiya jamiyatlari qoshida toponimik komissiyalari tuzildi hamda geografik nomlarni o'rganishga katta ahamiyat berildi. O'sha davrda toponimik tadqiqotlar uchta asosiy yo'nalishda olib borildi.

1. Toponimikaning nazariy masalalari va toponimik tadqiqotlar usullarini ishlab chiqish.
2. Sobiq Ittifoq va ittifoqdosh respublikalar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Makroregionlar va chet el mamlakatlar toponimikasiga doir ilmiy tadqiqotlar.

Ma'lumki, toponimikaning nazariy masalalarini hal qilmasdan turib toponimik tadqiqotlar bilan shug'ullanish qiyin. Shu sababdan, ayrim toponimlarning ma'nosini aniqlash bilan bir qatorda geografik obyektlarning nomlash qonuniyatlari hamda toponimlarni klassifikasiyasi masalasiga ham katta e'tibor berildi.

Toponimikani ilmiy fan sifatida shakllanishida rus olimlarining xizmatlari katta. Bu sohada A.Dulzon, A.Matveyev, A.Popov, A.Superanskaya, V.Toropov,

S.Tolstov, Ye.Pospelov, O.Trubachev kabi olimlarning asarlari ma'lum va mashhur. Ular orasida geograf olim E.Murzayevning xizmatlari alohida diqqatga sazovor. Olim yarim asrdan ko'proq vaqt davomida geografik nomlarni o'rgandi. O'rta Osiyo toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan mahalliy geografik terminlari haqida ko'plab qimmatli asarlar, monografiyalar, lug'atlar, ilmiy maqolalar yozgan. E.Murzayev ko'p yillik ilmiy faoliyati davomida toponimikaning nazariy masalalari bilan birga, geografik terminlarga alohida ahamiyat berdi.

Olimning ta'kidlashicha, har qanday toponimik tadqiqotni geografik terminlarni o'rganishdan boshlash kerak, chunki toponimik terminlar ko'pchilik geografik nomlarning etimologiyasini aniqlashda universal kalitdir. Geografik nomlarni ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyatni ehtiyoji bilan bog'liqligini ta'kidlab, E.Murzayev shunday yozgan: «gazeta o'qiganda ham, radio tinglaganda ham voqyea va hodisalarni ko'pincha geografik nomlarga bog'lab o'qib olamiz. Hozirgi zamon jamiyatini geografik nomlarsiz tasavvur etolmaymiz».

Sobiq ittifoqda toponimikani fan sifatida oyoqqa turishiga V.Nikonov katta hissa qo'shgan. Olim toponimlar tarix taqozosi bilan paydo bo'ladigan ijtimoiy hodisa ekanligini alohida ta'kidlagan. V.A.Nikonov nom geografik obyektning xususiyatidan kelib chiqadi, degan fikrni g'alat va toponimika uchun juda xavfli deb hisoblagan. Masalan, daryoga uni Qoradaryo yoki Oqdaryo deb atalishini hyech qanday farqi yo'q. Balki, geografik obyektning o'ziga xos xususiyatlari bunga asos bo'lgandir, ammo ana shu alomatni, belgini tanlashni faqat jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb hisoblagan. Nisbiy negativlik, toponimik pozitivlik, qatorlar qonuni, o'zlashma nomlar (kalka) kabi toponimika qonuniyatlari ilk bor taniqli toponimist V.Nikonov tomonidan aniqlanib fanga kiritilgan.

V.A.Nikonov geografik obyektlarga berilgan nomlar haqida fikr bildirib, nom qo'ygan xalq yo'q bo'lib ketsa ham, ammo nom uzoq muddat hattoki, bir necha ming yilgacha, asl holida yoki shakli va talaffuzi o'zgarib, mavhumlashib saqlanib qolishi mumkinligini ta'kidlagan. Masalan, olim tomonidan keltirilgan bir rivoyat bu fikrni isbotidir. Olimning yozishicha, konkistadorlar Amerikadagi Orinoko

daryosi bo'yida yashaydigan mahalliy hindu qabilasini qirib yuborishadi, ammo ular tomonidan xonakilashgan to'ti qushlar uzoq muddat mahalliy hindu qabilasi tilida sayragan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tarkibidagi boshqa mamlakatlarda ham toponimikaga katta ahamiyat berib kelinadi. Geograf olimlardan beloruslik V.Juchkevich bu sohada ancha ishlar qilgan. Uning «Umumiy toponimika» nomli o'quv qo'llanmasi bir necha bor nashr etilgan. Ukrainalik olim Yu.Karpenko regional toponimiyani mukammal o'rganishidan tashqari toponimika nazariyasi va metodologiyasining umumiy masalalariga alohida ahamiyat bergan. Olimning fikricha, geografik nomlarni izohlashda geografik kuzatishlar bag'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, real hayotda nomning tug'ilishiga turtki bo'lgan alomatni topish toponimika uchun nihoyatda muhimdir.

Markaziy Osiyo davlatlari toponimistlaridan Tojikistonda Yag'nob toponimlarini mukammal o'rgangan A.Xromov, Pomir mikrotoponimlarini tadqiq qilishda R.Dodixudoyev, A.Rozenfeld asarlarining ahamiyati katta. Qozog'istonda toponimlarni ham lingvistik, ham geografik nuqtai nazardan tadqiq etishda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Respublikada toponimlarni, xususan mahalliy geografik terminlarni o'rganishda G.Konkashpayevning xizmatlarini alohida qayd qilish kerak. Qozog'istonlik toponimistlardan A.Abduraxmanov, T.Januzaqov, V.Popova, Ye.Qo'ychiboyevlarning ilmiy ishlarida toponimikaning umumiy masalalari bilan bir qatorda joy nomlarining etimologiyasiga katta o'rin berilgan.

Turkmanistonda toponimikaning rivojlanishi akademik S.Ataniyozov nomi bilan bog'liq. Olim toponimikaning metodologik masalalarini yoritish bilan birga, tadqiqotlarida ko'proq etnonimlarning kelib chiqishiga e'tibor qaratgan. Turkman geografik terminlarini yig'ish va izohlash bilan M.Geldixanov shug'ullangan.

Qirg'iziston toponimikasining yutuqlari geograflardan S.Umurzoqov, tilshunoslardan Q.Qonqaboyev, D.Isayev nomlari bilan bog'liq. Ozarboyjonlik olimlar ham toponimika sohasida ancha jiddiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, respublika toponimlarini va mahalliy geografik terminlarni yig'ish hamda

o'rganish bo'yicha R.Yuzbashev, S.Mullazoda, A.Aliyev, toponimikaning nazariy masalalarini tadqiq qilishda T.Axmedovning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak.

O'tgan XX asr davomida xorijiy mamlakatlarda ham toponimik tadqiqotlar tez sur'atlar bilan rivojlandi. Natijada, bir qator mamlakatlarda toponimik maktablar paydo bo'ldi. Yer sharining turli mintaqalari geografik nomlarining o'rganishda A.Doza, A.Sherpilyo (Fransiya); G.Krae, M.Fesmer (Germaniya); E.Ekuoll, A.Smit, A.Rum, S.Mettyuz (Buyuk Britaniya); A.Profouz, V.Shmilauer (Chexiya); V.Tashiskiy, Y.Stashevskiy (Polsha); V.Georgiyev (Bolgariya); L.Kish (Vengriya), G.Dragu (Ruminiya); M.Olson (Shvesiya); J.Styuart, N.Xolmer (AQSh); J.Armstrong (Kanada); A.Kardozu (Braziliya) kabi olimlarning xizmatlari katta.

O'zbek olimlaridan birinchi bo'lib H.Hasanov toponimikaga murojaat qilgan. Olim geografik nomlarga bag'ishlangan bir qator maqola, broshyura va kitoblar yozgan. H.Hasanovning «Geografik nomlar imlosi» (1962), «O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964), «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965), «Yer tili» (1977), «Geografik nomlar siri» (1985) kabi asarlarida O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari haqida muhim fikrlar, xulosalar bayon etilgan. O'zbek «Magellani» deb e'tirof etilgan olim joy nomlarining transkripsiyasi, etimologiyasi, tarixi, toponimlarning asosini tashkil etuvchi geografik terminlarga juda katta e'tibor bergan.

Toponimika faniga ko'p yillik umrini bag'shida etgan olimlardan yana biri S.Qorayevdir. Olimning ilmiy faoliyatida mahalliy geografik terminlarni o'rganish alohida o'rin egallaydi. S.Qorayev joy nomlari tarkibida uchraydigan 120 dan ortiq geografik terminlarni atroflicha izohlab bergan. Masalan, aqba-«dovon», baraz-«tog'dagi tekis maydon», bel-«dovon», bo'ktar-«tog' etagi», gaza-«tog' qirrasi», depsan-«adirdagi tekislik», jo'na-«cho'zinchoq tepalik», zayak-«partov yer», zov-«tik yalang qoya», mo'la-«tosh-shag'aldan yasalgan belgi», sangloq-«silliq toshli soylik», seki (sekilov)-«zinasimon yonbag'ir», shiber-«o'tloq botqoqlik», tangi-«tor dara», tarma-«qor ko'chkisi», chag'at - «qirra toshli kungay yonbag'ir, chem-

«g'ov, to'siq», shag'il-«mayda toshli tik soylik», chalqa- «tekis maydon», chink-«jarlik», qo'riq-«daryo bo'yidagi o'tloq» kabi xalq terminlarini birinchi bo'lib geografiyaga, toponimikaga olib kirdi. Bu terminlarning ko'pchiligi shu vaqtgacha geografik adabiyotlarda, hatto izohli lug'atda ham uchramaydigan, ilmiy muomalaga kiritilmagan chinakam mahalliy xalq terminlari hisoblanadi.

O'zbekiston toponimiyasini lingvistik aspektda o'rganish o'tgan asrning 60-chi yillarida boshlandi. Tilshunos toponimist olimlardan E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do'simov, N.Oxunov, T.Enazarovlar O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga, geografik nomlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda, nomlanish qonuniyatlarni ochib berishda salmoqli hissa qo'shganlar. Xalq tabiiy geografik terminlari, ularning paydo bo'lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, manbalari, ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari kabi masalalar M.Mirakmalov tomonidan o'rganilgan.

Keyinchalik hududiy toponimika sohasida bir qator ilmiy-tatqiqot ishlari bajarildi. Masalan, T.Nafasov -Qashqadaryo toponimiyasini, Sh.Qodirova - Toshkent mikrotoponimlarini, Z.Do'simov - Xorazm, Ya.Xo'jamberdiyev - Surxondaryo, T.Rahmatov - Samarqand, S.S.Gubayeva va N.Oxunov - Farg'ona vodiysi, A.Zokirov - Jizzax, K.Abdimuratov - Qoraqalpog'iston respublikasi, S.Naimov - Buxoro viloyati toponimiyasini tadqiq qilgan.

Oxirgi yillarda bajarilgan mintaqaviy toponomik tadqiqotlarning aksariyati geografik nomlarining dialektik, semantik, grammatik va lingvogeografik xususiyatlariga bag'ishlangan. Joy nomlarining mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali har bir hudud toponimiyasining umumiy va xususiy jihatlari aniqlanib, ularning O'zbekiston toponimiyasida tutgan o'rni belgilanmoqda.

III - BOB. ILMIY TOPONIMIKANI PAYDO BO'LISHI (XIX - XX ASRLAR)

3.1. XX – ASR O'ZBEKISTON TOPONIMIKASI

Geografik nomlarni o'rganadigan ta'limotni ilmiy fan sifatida paydo bo'lishi ko'p jihatdan fanning amaliy ehtiyoji bilan bog'liq. XVIII - XIX asr olimlari ilk bor obyektlarni o'rganish, tavsiflash, xaritaga tushirish jarayonida geografik obyekt bilan birga nomlarini ham tadqiq qilishgan. Geografik nomlarni paydo bo'lishi, qaysi tilga mansubligi, shakllanishi, anglatgan ma'nosi, rivojlanishi tarixini ilmiy asosda o'rganish, xususan ularni klassifikasiya qilish XVIII asrning ikkinchi yarimidan boshlangan. Shu davrdan boshlab, joy nomlariga muhim ilmiy geografik ma'lumotlar manbai sifatida qaralgan.

Yer yuzining ma'lum hududi, qismini tasvirlashda uning nomi, qaysi tilga tegishli va qanday ma'no kasb etishni aniqlash muhim hisoblangan va geograflar tomonidan shu maqsadda ko'plab toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Gumbold, H.Vamberi, J.Tonnelye, N.Nadejdin, A.Vostokov, A.Kastren, P.Semyonov-Tyan-Shanskiy, L.Berg kabi olimlar ilmiy toponimika rivojiga katta hissa qo'shgan. Masalan, akademik A.Vostokov 1812 yili yozgan "Etimologiya havaskorlariga mashq" nomli maqolasida geografik nomlarni old va oxirgi qo'shimchalarining o'xshashligiga qarab bir necha guruhga bo'lgan va bu hol tasodufiy emas degan xulosaga kelgan. Tushinishi qiyin bo'lgan bu qo'shimchalar hozirgi ilmiy tilda topoformantlar deb ataladi. Shu sababdan mutaxassislar A.Vostokovni toponimik ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan formantlar (lotincha, formans - hosil qiluvchi) usuli asoschisi deb e'tirof etishgan.

XIX asrda tilshunoslik, tarix, geografiya, kartografiya kabi fanlarning amaliy ehtiyojidan kelib chiqib toponimikaga qiziqish yanada kuchaydi. Toponimikaga bag'ishlangan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, G'arbiy Yevropa, jumladan Fransiya, Angliya, Germaniya, Polshada barcha toponimik ishlarni

muvofiglashtiruvchi toponimik jamiyat yoki guruhlar paydo bo'ldi. AQSh da 1890 yilda geografik nomlar byurosi, 1923 yilda esa toponimik jamiyat tashkil qilindi.

Rossiyada ham 1847 yili Rossiya Geografiya jamiyati qoshida geografik terminologiyani o'rganish komissisi tashkil etildi va u toponimikaga katta ahamiyat berdi. Komissiya tarkibida qatnashgan A.Dal, N.Nadejdin kabi olimlar yordamida to'rt mingdan ortiq geografik terminlardan iborat lug'at tuzilgan. Rus olimi N.Nadejdinning toponimikaga bag'ishlangan ilmiy ishlari diqqatga sazovor. U toponimikani xalq hayoti, turmushi, dunyoqarashi bilan bog'liq ekanligi, jamiyat tarixidagi muhim voqea-hodisalar joy nomlarida aks etishiga katta e'tibor bergan. Toponimiya - yer tili, yer bamisoli bir kitobdir, unda insoniyat tarixi geografik nomlar bilan bitilgan" degan ta'rif aynan unga tegishli.

Keyingi ikki asr davomida yozilgan tarixiy, lingvistik va xususan geografik asarlardan O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimiyasiga oid ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. Masalan, vengryalik olim A.Vamberi O'rta Osiyoga maxfiy sayohat qilib, tarixiy toponimikaga oid "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" deb atalgan asar yozgan. Asarning lug'at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atamalar alifbo tartibida berilgan.

O'zbekistonning tarixiy geografiyasini, jumladan toponimiyasini o'rganishda inqilobdan oldin ijod qilgan rus olimlari orasida V.Vyatkinni alohida o'rni bor. Olimning Samarqand va Toshkent viloyatlariga bag'ishlangan va vaqf hujjatlari asosida yozilgan asarlarida ko'pgina toponimlarni kelib chiqishi haqida qiziqarli ma'lumotlarni topish mumkin. V.Vyatkinning asarlarida mahalliy geografik nomlarning ruscha transkripsiyasiga ham alohida ahamiyat berilgan. Umuman, olimning asarlari toponomik tadqiqotlarda, ayniqsa geografik nomlarning etimologiyasini aniqlash va toponimlarni transkripsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingandan keyin N.Xanikov, N.Sitnyakovskiy, L.Sobolev, D.Lagofet, A.Xoroshxin kabi olimlar turli ekspedisiyalar tarkibida O'rta Osiyoga kelib mahalliy xalqlarning tili, tarixi, etnografiyasini o'rganishgan. Shu sababdan, ularning asarlarida O'rta Osiyo joy nomlarining etimologiyasiga oid turli tarixiy-lingvistik fikrlar bildirilgan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi O'rta Osiyo toponimiyasini o'rganishda V.Bartold asarlari alohida o'rin tutadi. V.Bartold garchi toponimikaga bag'ishlab alohida asar yozmagan bo'lsa ham, ammo uning asarlarini o'rganmasdan turib O'rta Osiyo toponimikasi bilan shug'ullanib bo'lmaydi. Olim asarlarining toponimika uchun qimmatini shundaki, u rus va G'arbiy Yevropa tillaridagi adabiyotlarni arab, fors hamda turkiy tillardagi asarlar bilan taqqoslab tanqidiy o'rgandi. V.Bartold asarlarida arab va fors manbalarida qayd qilingan yuzlab joy nomlarining etimologiyasi sharhlagan, arna, ariq, yob, diz, g'ar, kent, rustoq, hisor, qal'a, qo'rg'on kabi ko'plab geografik terminlari ilmiy jihatdan izohlangan.

Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarimidan, to XX asrning birinchi yarimigacha toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, soni ko'paydi, sifat va saviya jihatdan ancha oshdi. Zaruriy ma'lumotlar to'planib, toponimikaga bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratildi. Ularda geografik obyektlarni nomlash qonuniyatlarining ayrim jihatlari aniqlanib ilmiy asoslangan toponimik tadqiqotlarga asos solindi.

3.2. XIX - XX - ASR TOPONIMIKASI

Geografik nomlarni o'rganadigan ta'limotni ilmiy fan sifatida paydo bo'lishi ko'p jihatdan fanning amaliy ehtiyoji bilan bog'liq. XVIII - XIX asr olimlari ilk bor obyektlarni o'rganish, tavsiflash, xaritaga tushirish jarayonida geografik obyekt bilan birga nomlarini ham tadqiq qilishgan. Geografik nomlarni paydo bo'lishi, qaysi tilga mansubligi, shakllanishi, anglatgan ma'nosi, rivojlanishi tarixini ilmiy asosda o'rganish, xususan ularni klassifikasiya qilish XVIII asrning ikkinchi yarimidan boshlangan. Shu davrdan boshlab, joy nomlariga muhim ilmiy geografik ma'lumotlar manbai sifatida qaralgan.

Yer yuzining ma'lum hududi, qismini tasvirlashda uning nomi, qaysi tilga tegishli va qanday ma'no kasb etishni aniqlash muhim hisoblangan va geograflar tomonidan shu maqsadda ko'plab toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Gumbold, H.Vamberi, J.Tonnelye, N.Nadejdin, A.Vostokov, A.Kastren, P.Semyonov-Tyan-Shanskiy, L.Berg kabi olimlar ilmiy toponimika rivojiga katta hissa qo'shgan.

Masalan, akademik A.Vostokov 1812 yili yozgan "Etimologiya havaskorlariga mashq" nomli maqolasida geografik nomlarni old va oxirgi qo'shimchalarining o'xshashligiga qarab bir necha guruhga bo'lgan va bu hol tasodufiy emas degan xulosaga kelgan. Tushinishi qiyin bo'lgan bu qo'shimchalar hozirgi ilmiy tilda topoformantlar deb ataladi. Shu sababdan mutaxassislar A.Vostokovni toponimik ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan formantlar (lotincha, formans - hosil qiluvchi) usuli asoschisi deb e'tirof etishgan.

XIX asrda tilshunoslik, tarix, geografiya, kartografiya kabi fanlarning amaliy ehtiyojidan kelib chiqib toponimikaga qiziqish yanada kuchaydi. Toponimikaga bag'ishlangan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, G'arbiy Yevropa, jumladan Fransiya, Angliya, Germaniya, Polshada barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtiruvchi toponimik jamiyat yoki guruhlar paydo bo'ldi. AQSh da 1890 yilda geografik nomlar byurosi, 1923 yilda esa toponimik jamiyat tashkil qilindi.

Rossiyada ham 1847 yili Rossiya Geografiya jamiyati qoshida geografik terminologiyani o'rganish komissisi tashkil etildi va u toponimikaga katta ahamiyat berdi. Komissiya tarkibida qatnashgan A.Dal, N.Nadejdin kabi olimlar yordamida to'rt mingdan ortiq geografik terminlardan iborat lug'at tuzilgan. Rus olimi N.Nadejdinning toponimikaga bag'ishlangan ilmiy ishlari diqqatga sazovor.

U toponimikani xalq hayoti, turmushi, dunyoqarashi bilan bog'liq ekanligi, jamiyat tarixidagi muhim voqea-hodisalar joy nomlarida aks etishiga katta e'tibor bergan. Toponimiya - yer tili, yer bamisoli bir kitobdir, unda insoniyat tarixi geografik nomlar bilan bitilgan" degan ta'rif aynan unga tegishli.

Keyingi ikki asr davomida yozilgan tarixiy, lingvistik va xususan geografik asarlardan O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimiyasiga oid ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. Masalan, vengryalik olim A.Vamberi O'rta Osiyoga maxfiy sayohat qilib, tarixiy toponimikaga oid "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" deb atalgan asar yozgan. Asarning lug'at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atamalar alifbo tartibida berilgan.

O'zbekistonning tarixiy geografiyasini, jumladan toponimiyasini o'rganishda inqilobdan oldin ijod qilgan rus olimlari orasida V.Vyatkinni alohida o'rni bor. Olimning Samarqand va Toshkent viloyatlariga bag'ishlangan va vaqf hujjatlari asosida yozilgan asarlarida ko'pgina toponimlarni kelib chiqishi haqida qiziqarli ma'lumotlarni topish mumkin. V.Vyatkinning asarlarida mahalliy geografik nomlarning ruscha transkripsiyasiga ham alohida ahamiyat berilgan.

Umuman, olimning asarlari toponomik tadqiqotlarda, ayniqsa geografik nomlarning etimologiyasini aniqlash va toponimlarni transkripsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingandan keyin N.Xanikov, N.Sitnyakovskiy, L.Sobolev, D.Lagofet, A.Xoroshxin kabi olimlar turli ekspedisiyalar tarkibida O'rta Osiyoga kelib mahalliy xalqlarning tili, tarixi, etnografiyasini o'rganishgan. Shu sababdan, ularning asarlarida O'rta Osiyo joy nomlarining etimologiyasiga oid turli tarixiy-lingvistik fikrlar bildirilgan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi O'rta Osiyo toponimiyasini o'rganishda V.Bartold asarlari alohida o'rin tutadi. V.Bartold garchi toponimikaga

bag'ishlab alohida asar yozmagan bo'lsa ham, ammo uning asarlarini o'rganmasdan turib O'rta Osiyo toponimikasi bilan shug'ullanib bo'lmaydi. Olim asarlarining toponimika uchun qimmatini shundaki, u rus va G'arbiy Yevropa tillaridagi adabiyotlarni arab, fors hamda turkiy tillardagi asarlar bilan taqqoslab tanqidiy o'rgandi.

V.Bartold asarlarida arab va fors manbalarida qayd qilingan yuzlab joy nomlarining etimologiyasi sharhlagan, arna, ariq, yob, diz, g'ar, kent, rustoq, hisor, qal'a, qo'rg'on kabi ko'plab geografik terminlari ilmiy jihatdan izohlangan. Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarimidan, to XX asrning birinchi yarimigacha toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, soni ko'paydi, sifat va saviya jihatdan ancha oshdi. Zaruriy ma'lumotlar to'planib, toponimikaga bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratildi. Ularda geografik obyektlarni nomlash qonuniyatlarining ayrim jihatlari aniqlanib ilmiy asoslangan toponimik tadqiqotlarga asos solindi.

Mashhur rus sayohatchisi va geografiya fani tashkilotchilardan biri P.P.Semyonov-Tyanshanskiyning o'g'li Viniamin Petrovich Semyanov toponimika fani uchun Tyanshanskiy rus toponimika faniga juda ulkan hissa qo'shgan olim. Rossiyada statistika boshqarmasi boshlig'i vazifasida , Rossiyada 1897 yilda birinchi aholi ro'hatini o'tkazishda faol qatnashgan. 1899 yildan boshlab chiqarib boshlagan ko'p jildli " Vatanning to'liq tarifi" kitoblarga muharrirlik qilish jarayonida toponimika masalalarida alohida e'tibor berilgan.

Olimning toponimika sohasidagi ishlarini uchta yo'nalishda ko'rish mumkin. 1. Toponimika va kartografiya, 2. Toponimika va tarixiy geografiya 3 Toponimikaning hudud geografik sharoiti bilan bog'liqligi. Rus geografiya jamiyatida xaritalarda nomlarni transkripsiya kichik komissiyasiga boshchilik qilishda ruscha nomlarni lotin alfavetida berish tizimini ishlab chiqadi. Yu.M.Shokalskiy – okeonolog, tilshunos akademik A.A.Shohmatov sharqshunos akademiklar K.G.Zaliman va V.V.Bartoldlar ishtirok etganlar. Geografiya

jamiyatining Moskva va filyalida toponimika komissiyasi butun mamlakat bo'yicha toponimik tatqiqotlarga yagona prinsip asosida boshchilik qilgan.

XX asrning 60 yillarida "Narodi Azii i Afriki", "Toponimiya Vostoka" jurnal va yirik nashrlar chiqarildi. 1966-yilda "Voprosi geografii" nashrning 70-soni "geografik nomlarni o'rganish" ("Misl" Moskva 1966) toponimika sohasida olib borilayotgan ishlarning oraliq yakuni nashr etildi. Rossiya va sobiq ittifoqda toponimika va geografik atamashunoslik sohasida ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertasiyalar yozildi va yoqlandi. Monografiyalar, lug'atlar, o'quv qo'llanmalar nashr etildi. Bu sohada A.P. Dulzon, E.M.Murzayev, V.A.Nikonov, A.I.Popov, S.M.Paspelov, A.V.Superanskaya, V.N.Toporov, O.N.Trubachev, va boshqa ishlari salmoqlidir.

Akademik V.A.Nikolayevning toponimikani o'rganishga undovchi ilmiy metodik ishlari E.M.Murzayevning Markaziy va O'rta Osiyo toponimikani ommalashtirishga qaratilgan ishlari diqqatga loyiqdir. "Kratkiy toponimicheskiy slovar (Moskva 1966 y) nomli V.A.Nikonov lug'ati fanni rivojlantirishga alohida ahamiyat kasb etadi. E.M.Murzayevning "Ocherki toponimi" (Moskva 1974-yil) "Slovar mestnix geograficheskix terminov" (M 1959) "Toponimika populyarnoya" (1968) kitoblari fan rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Geografik nomlarni atalish qonuniyatlari tahlili shu paytgacha to'plangan ilmiy materiallar asosida zaruriy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Geografik ob'ektlarni nomlash va ularni qayta o'zgartirishda toponimik qonuniyatlarga tayangan holatda nom berish ob'yektiv zaruriyat sanaladi. Aks holda toponimning "umri" qisqa bo'ladi, uni tez-tez o'zgartirib turishiga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, xalq tilining alomatlarini o'zida mujassam etish geografik nomlarga xos xususiyat hisoblanadi. Shuning uchun bir xalq tili qoidalari asosida yaratilgan geografik nomlarni hech qanday o'zgarishsiz ikkinchi tilga qabul qilish odatda imkoni bo'lmaydi. Chunki har bir tilning o'ziga xos qonun va qoidalari bo'ladi, uni inkor etish xatolar sonini ko'paytiradi, muayyan chalkashliklarga olib kelishi aniq.

Shu sababdan toponimistning vazifasi zamon o'tishi bilan tashqi qiyofasi o'zgarib ketgan nomlarni aniqlash, ularning dastlabki shakllarini topishdan iborat. Toponimika qonunlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, joylarga berilgan nomlar biron narsaning ko'pligidan emas, balki o'sha narsaning kamligidan ham bo'ladi.

Butun mamlakatda bo'lgani kabi Jizzax viloyatida ham ko'plab joy nomlari xalq, millat manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib o'zgartirildi. Ularni ilmiy asosda o'rganish, ma'nosini anglash, toponimik xaritalarini tuzish, takroriy nomlarni ko'payishiga yo'l qo'ymaslik, to'g'ri yozish, ularni kelajak avlodlar uchun asrab qolish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Ushbu masuliyatli vazifani mukammal bajarish ko'p jihatdan viloyat va tumanlarda tuzilgan geografik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi komissiya, uning qoshidagi ishchi guruh faoliyatiga bog'liq. Komissiyaning umumli ishlashida uni a'zolarining nechog'lik toponimika fani va uning qonuniyatlaridan xabardor ekanligi muhim ahamiyatga ega.

Viloyat toponimiyasini tadqiq qilayotganda tarixiy ma'lumotlarga suyanagan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq. Chunki toponimika ko'pincha tarixiy dalillarga va isbotlarga muhtoj, zero biron geografik nomni o'rganish uchun, albatta, uning qaysi davrda paydo bo'lganligi va nima sababdan shu nom

berilganligini tarixiy davr sharoiti, muhiti nuqtai nazaridan va albatta, shu hududa yashagan xalqlar tarixi bilan birga tadqiq etish lozim.

Geografik nomlarning kelib chiqishi tarixini tadqiq etishda arxeologik ma'lumotlarga ham suyanan holda ish ko'rish darkor, chunki arxeologik tatqiqotlar nomlarning qo'yilgan davrini aniqlashga ko'maklashadi. Geografik nomlar ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi hamda mintaqa toponimiyasiga tarixiy jarayonlar ham ma'lum darajada ta'sirini o'tkazganligi albatta inobatga olinishi lozim.

Viloyat toponimiyasi turli tillarga mansub, jumladan turkiy (o'zbek, qozoq, qirg'iz) va noturkiy (tojik, fors, arab, mug'ul, rus) toponimlardan tashkil topgan. Viloyatda turkiy (aksari o'zbekcha, so'ngra qozoqcha, shunindek qirg'izcha) geografik nomlar ko'pchilikni tashkil qilsa ham o'lka toponimiyasida sug'diy va boshqa eroniy substrat (tub) toponimlar, qadimiy turkiy toponimlar hamda arabcha va mo'g'ulcha leksik birliklardan tarkib topgan geografik nomlar mavjud.

O'zbekcha joy nomlari butun hudud bo'ylab keng tarqalgan va o'lka toponimiyasi asosini tashkil qiladi. Qozoq tiliga mansub toponimlarni ko'pincha qozoqlar kompakt (yaxlit) tarzda yashaydigan joylarda (Forish, Arnasoy, Mirzacho'l tumanlari), Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh, ya'ni viloyatning cho'l mintaqasida uchratish mumkin.

Joy nomlari kishilarning xo'jalik faoliyati va turmush tarzi bilan bog'liqligi sababli qozoqcha nomlarning aksariyati antropogidronimlardan iborat. Qirg'iz tiliga oid toponimlar son jihatdan ko'p emas, ularning aksariyati viloyatning qirg'izlar yashaydigan (Zomin, Baxmal) tumanlarida qayd qilingan.

Mintaqaning tog'li hududlarda qirg'iz tiliga mansub toponimlar bilan birga, o'zbekcha va tojikcha joy nomlarini ham uchraydi. Buni qirg'izlar yashaydigan hududlar ko'pincha qo'shni Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh ekanligi hamda qirg'izlar kelib o'rnamashishdan oldin bu joylarda o'zbek va tojiklar yashaganligi bilan izohlash mumkin. Viloyat aholisining ko'pchiligi jelovchi shevalarda gaplashganligi sababli toponimiyada ham bu holat aksini topgan. Buning o'ziga xosligi shundaki, o'rganilayotgan hududda qayd qilingan mahalliy geografik

terminlar toponimlar hosil qilgan. Geografik nomlarning turidan darak beruvchi, ya'ni indikator terminlar qatoriga belchagach, bo'ktar, depsan, sag'anoq, chalqa, ching, shiber, o'lahat kabi boshqa hududlarda uchramaydigan istilohlarni kiritish mumkin.

Jizzax viloyati ma'muriy-hududiy bo'linishi kesimida geografik nomlar tahlil qilinganda, har bir tuman toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Masalan, Zomin, Yangiobod, Baxmal tumanlarida turkiy toponimlar bilan birga qadimiy sug'd tiliga oid joy nomlari ham talaygina uchraydi. G'allaorol va Forish tumani toponimiyasi tarkibida etnotoponimlar va joyning geografik xususiyatiga qarab nomlangan geografik ob'yektlar ko'proq.

Viloyatning shimoliy cho'l mintaqasida joylashgan Paxtakor, Do'stlik, Zafarobod, Arnasoy, Mirzacho'l va Zarbdor tumanlarining geografik nomlarida antroponimlar bilan birga, agroonimlarni va Jizzax cho'lini o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa joy nomlarini uchratish mumkin. Viloyatning tog'li hududlarida qadimiy so'zlardan tashkil topgan toponimlar ko'p bo'lsa, aksincha tekislik qismida bunday holat ko'zga tashlanmaydi.

Viloyatning tekislik qismida cho'l tabiati hukmron, binobarin tog'u-toshlar yo'q, suv ob'ektlari kam, buning oqibatida toponimlar ham ko'p emas, borlari ham leksik jihatdan rang-barang emas. Relief tekis bo'lsa, tabiiy chegaralar bo'lmasa, geografik nomlar ham kam bo'ladi degan xulosaga kelindi.

Mintaqa toponimiyasini boshqa hududiy toponimiyalar bilan taqqoslaganda etnotoponimlarning salmog'i ancha katta ekanligi aniqlandi. Etnotoponimlar, ya'ni qabila, urug'-aymoq, qavm-elat nomlari bilan ataladigan toponimlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki etnotoponimlar yordamida mahalliy aholining xo'jalik faoliyati, migrasiyasi, areali, ularning etnogenezi hamda etnik aloqalarni aniqlash imkoni mavjud.

Shu sababdan qabila-urug' nomlarini boshqa so'z - terminlardan, masalan, hayvonlar nomlari-totemlardan, ya'ni qabila-urug'larning «ajdodi» hisoblangan muqaddas jonivorlar nomlaridan farqlab olmasdan turib, ularning tub ma'nosini aniqlab bo'lmaydi. Toponimlar va etnonimlar orasida uzviy bog'liqlik mavjud,

ya'ni geografik nomlar yordamida biror hududda yashagan etnik guruhning o'tmishda o'troq yo ko'chmanchi hayot kechirganligini ham bilib olish mumkin, chunki o'troq va ko'chmanchi xalqlar joylarga turlicha nom qo'yganlar.

O'troq aholi ko'pincha geografik ob'yektning xususiyatiga qarab uni nomlaydi, ko'chmanchi aholi esa aksincha joyni o'z urug' va qabilalarning nomlari bilan atashni ma'qul ko'rganlar. Mahalliy xalqning xo'jalik faoliyati, tarixi, moddiy madaniyatining xususiyatlari hamda vohaning tabiiy muhiti va geografik sharoiti mahalliy geografik terminlarning paydo bo'lishida muhim rol o'ynagan.

Viloyat hududida relefning xilma-xilligi, suv obektlarining ko'pligi, o'simlik va hayvonot dunyosining boyligi geografik terminlarning ko'pligiga sabab bo'lgan. Bunday terminlar viloyat toponimiyasining negizi, ya'ni murakkab geografik nomlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababdan xalq geografik terminlarini bilmasdan turib joy nomlari etimologiyasini to'g'ri aniqlab bo'lmaydi. Ularni yig'ish, tartibga solish, tasniflash, boshqa hududlarning geografik terminlari bilan qiyoslash, lug'atini tuzish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Mintaqa toponimiyasi ko'pincha bir, ikki va murakkab komponentli (unsurli) toponimlardan tashkil topgan, qo'shimchalar asosan o'zakdan keyin turadi.

Geografik nomlarni yasashda eng ko'p qatnashadigan affikslar –obod, -iston, -li, -lik, -chi, -cha, -zor qo'shimchalaridir. Mintaqa toponimlarini yasashda mahalliy xalqning ishlab chiqarish xususiyatlari (hunarmandchilik, savdo, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi) geografik landshaft shakllari, ya'ni jar, buloq, tangi, baroz, quduq, qum kabi so'zlar ham fa'ol qatnashganligi aniqlandi.

Xulosa shuki, nomlar geografik ob'yektlarga o'z-o'zidan, tasodufiy tarzda berilmaydi. Geografik ob'yektlarni nomlashda tabiat va jamiyat uyg'unligiga muvofiq keladigan, muayyan hududlarda yashagan va yashayotgan aholining turmush tarzi, ruhiyati, etnografiyasi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyati bog'liq bo'lgan, bundan tashqari, nomlanish davridagi qonun qoidalar amal qiladi. Ana shu qonun-qoidalarni anglamasdan va ularga amal qilmasdan turib nomlarning mukammaligiga da'vo qilib bo'lmaydi.

GLOSSARIY

Toponimikani ham boshqa fanlardek o'ziga xos iboralari mavjud. Ularni yaxshi o'zlashtirish esa fan sir-asrorlarini bilib olishni osonlashtiradi. Qo'yida toponimikada qo'llaniladigan asosiy so'z va iboralarni qisqacha sharhi berilgan.

Agroonim – (yunoncha agros –dala, ekinzor, shudgor) – toponimning bir turi. Masalan, Bedapoya, O'ttizgektar, Mo'soning yeri.

Antroponim – (yunoncha antropos - odam)- atqli otning bir turi. Odamning ismi, familiyasi, taxallusi, laqabi. Masalan, Hamid Olimjon, Sharof Rashidov, Safar ota, Hayitqul tepa.

Atoqli ot - biron obyektни boshqa obyektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi, onim. Masalan, Mirzacho'l, Qizilqum, Qili va boshqalar.

Geografik atamalar - geografik obyektning turini bildiradigan so'zlar geografik atamalar hisoblanadi. Masalan, adir, qir, ko'l, cho'l, tog', quduq, soy, tekislik va boshqalar. Geografik atamalar turdosh otlar bo'lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan alohida yoziladi. Ko'proq shevalarda ishlatiladigan atamalar mahalliy geografik atamalar yoki xalq geografik atamalari deyiladi.

Gibrid nom - ikki va undan ortiq tillarning leksik va morfologik unsurlaridan tarkib topgan nomlar. Masalan, Toshkamar, Ko'kgumbaz, Xayrobod va boshqalar.

Gidronim –(yunoncha gidro – suv, onim – nom, ism)- toponimning bir turi. Tabiiy yoki inson tamonidan bunyod etilgan har qanday suv obyektlari - okeanlar, dengizlar, daryolar, kanallar, suv omborlari, soylar, quduqlar va boshqalar. Masalan, Zominsuv, Sangzor, Qili, Aydarko'l, Tuzkon.

Makrotoponim - ma'lum va mashhur bo'lgan tabiiy geografik obyektning atqli oti, materiklar, qit'alar, okeanlar, eng katta tekisliklar, tog'lar, tabiiy geografik o'lkalar nomi. Masalan, Turon, Qizilqum, Osiyo, Oloy, Pomir. Bular ko'pincha olimlar, sayyohlar tomonidan beriladi va rasmiylashtiriladi. Makrotoponimlar

ba'zida yerli aholiga ma'lum bo'lmasligi mumkin, chunki ular asosan mikrotoponimlardan foydalanadilar.

Mikrotoponim - muayyan hududda ma'lum bo'lgan kichik geografik obyektlarning atoqli otlari. Masalan, buloqlar, ko'priklar, jarliklar, quduqlar, bog'lar va boshqalar. Mikrotoponimlar uchun omonatlik, o'zgaruvchanlik, harakatchanlik xosdir, hamda ular nafaqat geografik tushuncha balki, ma'naviy tushuncha hamdir.

Mikrotoponimlar odatda og'zaki nutqda qo'llaniladi, kamdan-kam yozuv ma'lumotlarida ishlatiladi. Tilning o'zgarishi bilan mikrotoponimlar ham o'zgaradi. Ularning ko'pchiligi yuqolib ketishi ham mumkin.

Oykonim - (yunoncha oykos – uy, turar joy, makon)- toponim turi, aholi yashaydigan har qanday joyning qishloq, ovul, shaharcha, shaharning nomi. Masalan, Jizzax, Zomin, Do'stlik, Marjonbuloq.

Oronim - (yunoncha oros – tog') – tog'lar, qirlar, tepaliklar, dovonlar, daralar va boshqa bir qator orografik obyektlarning nomi. Masalan, Nurato, Turkiston, Molguzar, Amir Temur darvozasi.

Toponim - (yunoncha topos – joy, makon, onima- nom, ism.)- har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi. Masalan, gidronim, oykonim, urbonim, agroonim.

Totem - urug'chilik tuzumining ilk davrida hayvon va o'simliklar turiga yoki jonsiz tabiat narsalariga topinish. Masalan, bolg'ali, taroqli, oytamg'ali, erganakli va boshqalar.

Transkripsiya - (lotincha transriptio – ko'chirib yozish) boshqa tildagi geografik nomlar (fonemalar)ni o'z tilidagi grafemalar (harflar)bilan ifodalash, yozish. Transkripsiya deganda so'zlarni va matnlarni ularning talaffuzini hisobga olgan holda muayyan yozuv vositalari yordamida yozish, ifodalash usuli tushuniladi.

Formant - (lotincha formans - hosil qiluvchi) –so'z yasaydigan, lekin, mustaqil ishlatilmaydigan unsur. Toponimlar tarkibida ayniqsa ko'p uchraydi. Masalan, kent-Nushkent, Yangikent; loq - Toshloq, Qumloq va boshqalar.

Urug' - kishilarning eng qadimgi birligi bo'lib, qarindosh avlod – bir ota-onadan tarqalgan avlod. Urug'chilik qon- qarindoshlikka asoslangan bo'lib, har bir urug' odamlari bir-birlari bilan xo'jalik va ijtimoiy jihatdan o'zaro bog'liq.

Etnonim - (yunoncha etnos-xalq, onim-ism, nom) – urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi. Urug', qabila,, xalq nomi o'zi tamonidan tanlangan yoki o'zgalar tamonidan berilgan bo'lishi mumkin. Masalan, barlos, nayman, qipchoq, jaloyir, laqay va boshqalar.

Etimon - (yunoncha etimon-haqiqat, so'zning asosiy ma'nosi) – muayyan nomning tadqiqotchilar aniqlagan dastlabki shakli, ma'nosi.

Haqiqiy toponim - bu xarita, ma'lumotnomalarga tushgan, aslida mikrotoponimlardan kelib chiqqan tabiiy va sun'iy obyektlarning yakka nomi. Ular har xil xalq va turli tillar mahsulidir, juda ko'p ishlatiladi va o'zi joylashgan hududdan boshqa joylarda ham ma'lumdir.

Qabila - (arab) urug', urug'-aymoq- bir ota-onadan tarqalgan bir nechta urug' uyushmasi. Qabila urug'ga nisbatan yirik bo'lib, bir nechta urug'larning birlashuvidan hosil bo'ladi. Masalan, ming, nayman, jaloyir, qo'ng'iroq, qipchoq va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.; Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida" gi 2011 y. 12.10.dagi № O'RQ-303 -sonli Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida" gi 2012 y. 16.10.dagi № 295- sonli Qarori.
4. Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. -Samarqand. 2006. -163 b.
5. Do'simov Z. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. T.; 1977, b.4.
6. Murzayev E.M. Основные направления топонимических исследований. V kn. «Принципы топонимики». -M.; 1964.
7. Murzayev E.M. Этюды по топонимике Средней и Центральной Азии. Вопросы географии №8. -M.; 1948.
8. Murzayev E.M. Топонимика - популярная. -M.; 1973.
9. Murzayev E.M. Очерки топонимики. -M.; 1974.
10. Murzayev E.M. Топонимика Средней Азии и Казахстана. Онимастика Средней Азии. -M.; 1978.
11. Murzayev E.M. География в названии. -M.; 1979.
12. Murzayev E.M. Словарь народных географических терминов. -M.; 1999.
13. Nabiyev A. Tarixiy o'lkashunoslik. T.; 1996, b.130
14. Nafasov T. Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. T.; 1985.
15. Nikonov V.A. Введение в топонимику. -M.; 1965.
16. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? -T.; 1970.
17. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. -T.; 1978.
18. Qorayev S. Etnonimika -T.; 1979.
19. Qorayev S. Geografik terminlar va tushunchalar izohi lug'ati. -T.; 1979.

20. Qorayev S. O'zbekiston oykonimlarini sosial-iqtisodiy geografik aspekda o'rganish. O'z. GJA. 18-jild.-T.; 1997.
21. Qorayev S. O'zbekiston toponimlarini hosil qiladigan asosiy terminlar va boshqa so'zlar lug'ati. -T.; 2001.
22. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. -T.; 2005.
23. Qoraev S. Toponimika. -T.; 2006.
24. G'ulomov P. Jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati.-T.; 1994.
25. Haydarov H. Jizzax viloyati tarixi. -T.; 1996.
26. Hasanov H. O'rtaosiyolik geograf va sayyohlar. -T.; 1964.
27. Hasanov H. Geografiya terminlari lug'ati. -T.; 1964.
28. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. -T.; 1965.
29. Hasanov H. Yer tili. -T.; 1977.
30. Hasanov H. Geografik nomlar siri. -T.; 1985.
31. Hakimov Q., G'o'dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. -Jizzax, 2004.
32. Elyektron adabiyotlar va Intyernyet manbalari. Intyernyet saytlar:
<http://geo.wgeo.ru>
geografiya.ru
world.freeglobus.com
www.ref.nnov.ru

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI

GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI
GEOGRAFIYA VA IQTISODIY BILIM ASOSLARI YO'NALISHI

“TASDIKLAYMAN”

FAKULTET DEKANI _____

“ ____ ” _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

BITIRUVCHI: **FAYZULLAYEVA SEVARA** _____

1. Ish mavzusi: O'RTA OSIYO OLIMLARINING TOPONIMIKA FANI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

“ ____ ” _____ 201_ y. Rektorning ____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: 20.05.2013 y. _____

3. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati:

E.M.Murzayev Ocherki toponimiki _____

S.Qorayev Toponimika _____

H.Hasanov Geografik nomlar siri _____

N.Oxunov Joylar va nomlar _____

Z.Do'simov Xorazm toponimlari _____

M.Mirakmalov Geografiyada toponimika _____

4. Ishning maqsadi va hal qilinadigan masalalar: Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi toponimikani fan sifatida rivojlanishida O'rta Osiyo olimlari qanday hissa qo'shgan va ular nimalardan iborat bo'lganligini aniq misollar yordamida tadqiq qilib ko'rsatib berishdan iborat. Bitiruv ishini bajarilishi davomida respublika ilmiy nashrlarida kamida bitta ilmiy maqola e'lon qilish rejalashtirilgan.

5. Grafik qismi materiallari ro'yxati : 5-ta jadval va 3 kartadan iborat -----

Maslahatchilar:

Bo'limlar	Maslahatchi	Imzo sana	Topshiriq qabul qilindi
-----------	-------------	-----------	-------------------------

	(F.I.Sh)	Topshiriq berildi	
1-bob	g.f.n. Hakimov Q.	20.11.2012 y.	20.01.2013 y.
2-bob	g.f.n. Hakimov Q.	20.01.2013 y.	20.03.2013 y.
3-bob	g.f.n. Hakimov Q.	20.03.2013 y.	20.05.2013 y.

Bitiruv ishi bajarish rejasi:

№	Bosqichlar nomi	Bajarish muddati	Bajarildi
1	KIRISH	01.12.2012 y.	
2	1.0. -BOB. QADIMGI DUNYO VA O'RTA ASRLARDA TOPONIMIKA	20.01.2013 y.	
3	2.0. -BOB. ILMIY TOPONIMIKANI PAYDO BO'LISHI (XIX - XX ASRLAR)	20.03.2013 y.	
4	3.0. -BOB. O'RTA OSIYO OLIMLARI VA TOPONIMIKA	20.05.2013 y.	
5	XULOSA	25.05.2013 y.	

ILMIY RAHBAR:

g.f.n. Q.HAKIMOV

KAFEDRA MUDIRI:

g.f.n. Q.HAKIMOV

TOPSHIRIQNI BAJARISHGA OLDIM: _____ S.FAYZULLAYEVA

“ 19 ” noyabr 2012 yil

